




02  
764.1  
A15  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

N.X. ABDULLAYEV

# CHIZMATASVIR

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*



Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2010

85.15

**Taqrizchilar:** K. Bexzod nomidagi MRDI “Kitob grafikasi va miniatura” kafedrası katta o‘qituvchisi **M. Mahkamov**;  
Respublika rassomchilik kolleji katta o‘qituvchisi  
**A. Akbarxo‘jayev**

Abdullayev N.X.

**A15 Chizmatasvir.** Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / N.X. Abdullayev; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi.  
— T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, -80 bet.

Mazkur qo‘llanma tasvirlash metodikasi haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek pedagog-rassomga tavsiyalar bo‘limida o‘qituvchi uchun foydali fikr va mulohazalar oddiy tilda aniq yoritilgan. Metodik qo‘llanmaning asosiy vazifasi o‘quvchilarning rassomchilik sir — asrorlarini o‘zlashtirgan holda, mustaqil fikrlash hamda ijodiy faoliyatini va qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Qo‘llanma o‘rta- maxsus kasb- hunar kolleji va litseylar o‘qituvchilari ta‘lim oluvchi o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

**BBK 85.15ya722**

ISBN 978-9943-13-280-1

© «IQTISOD-MOLIYA», 2010

## KIRISH

Jamiyatimizni rivojlantirishda, fan, madaniyat va maorifning o'rnini hamda hissasi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'lda ishonchli qadam tashlovchi, davrga mos va xos kadr tayyorlashda o'qituvchi va ustozlarning mas'uliyati, mehnati yuksak darajada bo'lishi kerak.

Demak o'qituvchilarni professional darajada tayyorlashga katta e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchi chizma-rangtasvir, kompozitsiya fanlarini professional darajada bilishi kerak.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm fan, kasb xunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor bera boshlandi va yangi ta'lim modelini yaratishda kuchli samaraga erishish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarini ro'yobga chiqarish, yuqori malakali kadr, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda ta'lim tizimi oldiga murakkab, ko'p qirrali va mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Kasbiy savodni va mahoratni oshirishda, estetik dunyo qarashini shakllantirishda, badiiy maktablar va u yerda o'tiladigan barcha san'at turlarining asosi bo'lmish chizmatasvir baholi qudrat mavqeiga ega. Chizmatasvir nafaqat san'at turi, balki shakllarni idrok etish, konstruktiv asosni tushuna bilish, jismlar plastik shaklining tekislikdagi holatini tasvirlab berishda asosiy idrok etuvchi fandır.

Qadimgi Misrlıklar va Yunon rassomlari ham bilim olishni chizmatasvirdan boshlashgan. O'rta asrlarda, uyg'onish davrida ham chizmatasvirning ahamiyati juda katta bo'lgan va albatta hozirgi davrga kelib ham ushbu qoidaga barcha badiiy maktablar amal qilib kelmoqdalar. Bo'lajak rassomning ma'naviy, ilmiy-ijodiy faolligiga yetarli imkoniyatlar yaratib berish, o'tiladigan darslarning zamon talab darajasida sifatli berilishi, o'quvchining o'z ixtisosligini chuqur egallashida keng zakovat va madaniyatga ega bo'lishida salmoqli ahamiyat kasb etadi.



Yosh rassomning tasviriy san'at bilan ilk muloqoti chizmas-tasvirdan boshlanadi.

Topshiriqlarni bosqichma-bosqich oddiydan murakkabga qarab ketma-ketligi yo'lga qo'yilgan.

Qo'llanmada tus berish ahamiyati, ishning tugallanish darajasi, anatomiya bilimini o'rgatishni bosqich bilan olib borish, perspektiva qonun-qoidalari haqida tushuntiriladi.

### **Dars berishda ko'rgazmali usulning roli**

Jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan ilmiy texnik progress bilan bir sharoitda fan, madaniyat va maorifning ham roli oshib boradi. Turli kasbdagi mutahassislarning ish sifatlarini yanada yaxshilashga talab kuchayganligi sababli, ularni tayyorlash ham yuksak darajada bo'lishligini taqozo qiladi.

Davr talabiga mos va hos kadr tayyorlashda ustozlarning mas'uliyati juda katta. Uning professional darajasi darslarning qanchalik to'g'ri tashkil qilishi, o'quvchini dunyo qarashini o'stirishda, komil inson, yaxshi rassom bo'lib etishishda bor kuchi va tajribasini ayamaslik kerak.

O'qituvchining mahorat (masterlik) darajasi yuqori bo'lishi shartligi xaqidagi g'oyani XIX asrning buyuk rus rassomi I.E.Repin doim ta'kidlab tashviqot qilar edi. U o'sha davrda keng tarqalgan fikr **“go'yoki o'qituvchi rassom bo'lishi shart emas, balki o'qitishni bilsa bas”** degan iboraga kuyunib qarshilik qilgan. Bunday “o'qituvchilar nafaqat o'tayotgan faniga qiziqтира oladi va na ishga to'g'ri yondoshishga o'rgata oladilar” deb ta'kidlagan edi. (I.E.Repinning Rassomlar va arboblarga xatidan)

Pedagog-rassomda (sistematik) uzluksiz ravishda, faqat ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga imkon bo'lavermaydi, chunki u o'quv-tarbiya ishlari, jamoat ishlari bilan band bo'ladi. O'qituvchining butunlay ijod bilan shug'ullanadigan rassomlar darajasida ishlash imkoni yo'qligi tabiiydir, bu esa o'qituvchi umuman ijoddan voz kechishi kerak degani emas. Qanchalik band bo'lishidan qat'iy nazar, kundalik mashqlar; qisqa muddatli chizgilar-etyud, kompozitsiyaga eskizlar va hokazolar bajarilishi, o'quvchilarga vazifani tushintirish jarayonida albatta chizib ko'rsatib berishda, professionallik daraja sezilishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchi chizmatasvirning bir nechta texnik usullarini bilish bilangina chegaralanib, tasviriy ijodni yuzaki biladigan mutaxassis-hunarmand vazifasini bajarishga xaqqi yo'q. U xaqiqiy rassom bo'lishi, chizmatasvirni yaratilish jarayonini professional darajada, ijodiy yondoshgan holda bajarishi kerak.

Tasviriy san'at o'z tabiati bilan ko'rib his qilish ta'siri orqali qabul qilinadi. Shu tufayli o'qitish jarayonida, turli o'qitish vositalaridan foydalanish, yaxshi samara beradi. Bular: kitoblar va albomlar illyustratsiyalaridan, tasviriy san'atga oid reproduksiya-lar, o'quv modellardan namunalar va boshqa jadvallar, ko'rik imtixonlardan olingan namunaviy yaxshi suratlar va kinofilmlar, o'qituvchi o'zi chizgan suratlar, quyidagi o'qitish vositalari, topshiriqlarning turiga qarab o'zgartirib turiladi.

Oq-qora sinf doskalari, dars jarayonini to'g'ri va aniqroq talqin qilishda yaxshi qulay vosita bo'lib, ularga tasvirni ko'mir qalam, flamaster va oq bo'r, rangli bo'r bilan chiziladi. Sinf doskalari xonada bo'lishi xar taraflama qulay, shuningdek topshiriqni tushuntirish jarayonida jadval va sxemalar ilib qo'yish ham mumkin.

O'qituvchinining dars jarayonida talabalarga tushuntirib beradigan "pedagogik chizma" funktsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) dars mobaynida og'zaki tushuntirishning alohida holatlarini illyustratsiyalashtirilgani;

b) chizma ish jarayonini metodik yo'sinda namoyish qilish;

v) chizmani ishlashning biron-bir jarayonini ko'rsatish;

g) tasvirlanayotgan ob'ekt asl maqsadini tushuntirish;

d) chizmani kompozitsion hal qilish printsiplarini ko'rsatish;

g) ishning texnik usullarini namoyish qilishda, turli ashyo materiallarini chizmada qo'llashning texnik imkoniyatlari va ahamiyati;

j) mashg'ulot mavzusi bilan bog'langan holda, tasvirlash vazifalarini to'g'ri va noto'g'ri hal qilishda ko'rgazmali tahlil qilish;

z) u yoki bu aniq muayyan tematikadagi chizma-topshiriq xususiyatlarini tushuntirish.

“Pedagogik chizmani” hamda o‘qituvchi ish faoliyatiga taalluqli vazifalarni, diqqat e’tibor bilan kuzatib turgan o‘quvchilar qarshisida tez va aniq bajarilishi, o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi, u o‘z asarini yolg‘iz xotirjamlik bilan, xatolarini tuzatib va xohlagan vaqtda davom ettirishi yoki qaytadan tanlash imkoni bor rassomdan sezilarli darajada farq qiladi.

O‘qituvchi tasvirlash faoliyati murakkabligi yana shundaki, u “pedagogik chizmani” bajarish bilan bir vaqtda o‘quv materialni og‘zaki tushuntirib beradi, xulosa qilib aytganda, qo‘ldagi mel yoki qalam xarakati, aytilgan gaplardan kech qolmasligi kerak.

Bunday uyg‘unlikka o‘qish mobaynidagi uzoq muddatli mashqlar, o‘zi ustida ishlash evaziga erishiladi. Chizish jarayonida ularni beparvo, kasbiy malakaning etishmasligi tufayli, e’tiborsizlik bilan chizishga xaqlari yo‘q.

O‘zining ijodiy pedagogik faoliyati davrida, professional mahorat darajasi bilan, rassom-o‘qituvchi yuzlab shaxslarning shakllanishida o‘z xissasini qo‘shadi. Agar uning professional bilim darajasining pastligi mahoratning sustligi, na faqat o‘quvchi oldida obro‘sizlanishi, o‘qitayotgan faniga sezilarli darajada zarar etkazishi, va nihoyat ushbu zarar uzoq yillar davomida o‘z natijasini bermay qolmasligi mumkin.

Talaba san’atda nima yomonu, nima yaxshi ekanligi haqida xato tasavvurga ega bo‘lsalar, tasvirni ifodalashning xato usullarini o‘zlashtirib olsalar, o‘qituvchi ish yuritishini kuzatish jarayonida xato muloxazalarni eshitar ekanlar, bu ko‘pchilik xollarda xotiraga mixlanib boraveradi, oxir oqibat didsizlik, beparvolik va nodonlik, kabi illatlar kelgusi o‘qish jarayonlarida bir qator xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.


Barcha yoshlar tashqi axborotni tezda qabul qilish xususiyatiga ega ekanlar, demak berilayotgan informatsiya to‘g‘ri asosli va foydali bo‘lishi kerak. O‘zining fani bo‘yicha dars olib borishga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi bo‘lg‘usi darsga qisqa yozma konspekt va qo‘yilajak natyurmort yoki naturani, xomaki chizgisini oldindan belgilab olishi kerak. Bunda qo‘yilgan topshiriqning vazifasi, maqsadi, tushuntirish jarayonidagi xarakterli jixatlarini obdon tushuntirish xaqidagi bor axborotlar to‘plangan bo‘lishi kerak.




Tasviriy san'at darsini zerikarli va kamxafsalalik bilan ta'lim berib bo'lmaydi, aksincha dars ijodiy jo'shqinlikda, qiziqarli olib borilishi kerak. Biz "pedagogik chizmani" o'quv jarayon uchun chizilgan suratlarni, ko'rgazmaga qatnasha oladigan, muzeylarga topshiriladigan jiddiy asarlar qatoriga qo'sha olmaymiz. Chunki har birining vazifasi, o'rni, maqsadi boshqa-boshqa. Ammo o'quvchilarni chizishga o'rgatish jarayonidagi, o'qituvchining chizgan qo'llanmalari katta ahamiyatga ega va ijodiy ish bo'lib sanaladi. Boshqa sohadagi rassomni ijodi qanchalik zarur bo'lsa, u ham shunchalik kerakdir.

Ba'zan o'qituvchilar tomonidan tushuntirib ko'rsatib berish o'rniga deyarli chizib berish hollari ko'p uchraydi. Bu esa baholarni sun'iy ravishda ko'tarib berish, o'quvchini ishlab topmagan bahosi deb hisoblayman, bunga chek qo'yish kerak.

Yozgi amaliyot kezlari yoki bir necha kunga o'quvchilar bilan etyud ishlash uchun tashqariga chiqiladi, o'qituvchi iloji boricha shogirdlari bilan birga o'zi ham naturadan etyudlar, shaxsiy ijodiy ishlari uchun eskizlar qilishga to'g'ri keladi, buni o'quvchilar uchun ham ahamiyati juda katta.



Chizish jarayonidagi gavda, qo'l va planshetning to'g'ri holati



a



b

a) to'g'ri holati,  
b) noto'g'ri holati

San'atning barcha turlarini ya'ni; rangtasvir, haykaltaroshlik va arxitekturaning asosi va yuqori nuqtasi, barcha bilimlarning ildizi va negizi — chizmatasvirdir.

*Mikelanjelo*

## **1 – BOSQICH I SEMESTR**

Bo'lajak rassom tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli hil badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egalashi kerak. Bunda chizmatasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va bosqichma-bosqich atroflicha yoritib beriladi.

Oddiy geometrik jismdan tashkil topgan natyurmortdan boshlab, vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish shakli, tuzilishi va materiali har hil bo'lgan bir qator predmetlardan, tirik odam qomatini o'rganishgacha, ularning haqqoniy tasvirini yaratish rassomchilik sirlarini o'rganishda ishonchli va sinalgan yo'ldir.

### **1. Oddiy va sodda shakldagi ikki yoki uchta geometrik jismlarning chiziqlar bilan bo'shliqda ko'rsatilgan chizmasi**

Ushbu jismlar quyidagicha bo'ladi; "kub" — va konus. Qo'yilgan geometrik jismlar diqqat bilan kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Natura bilan tasvir o'rtasidagi to'la o'xshashlikka erishmoqlik juda murakkab jarayondir. Go'yoki o'tkir ko'z, kuzatuvchanlik bo'lsa, tasvirning muvaffaqiyatiga to'la erishiladigandek.

Ammo bu kamlik qiladi (predmet) narsalar shaklining tuzilishini ko'zga ko'rinmas, ichki konstruksiyasi asosini, joylashish kompozitsiyasi, perspektivasi, soya va yorug' kabi nazariyalarni puxta bilish talab qilinadi.

Jismlarni tasvirlashda (planshet) qog'oz sathidan unumli foydalanishimiz, ya'ni narsalar tasviri o'ta kichik, yoki juda katta bo'lib, qog'oz chetiga yaqinlashib qolmasligiga e'tiborni qaratishimiz kerak.



Ushbu jarayon to'g'ri joylashtirish (komponovka) deyiladi. Yengil chiziqlar bilan (gorizont) chiziq ko'rish markazini, umumiy proportsiyalari, kengligi va balandligi belgilab chiqiladi.


Jismlarning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Agar jismlar (gorizont) ufq tekisligidan pastroq joylashgan bo'lsa, jismlarning ust qismi kattaroq, yaxlitroq bo'lib ko'rinadi, yoki aksi. Ufq chizig'i hamisha kuzatuvchining ko'z-ko'rigi bilan bir hil darajada joylashadi.

Ushbu ufq — chizig'i iborasining yanayam tushunarli bo'lishi uchun, bir metodik uslubni qo'llaymiz, - tasavvur qilaylik xonamizdagi ochiq deraza surat tekisligi; - tashqaridagi uylar, daraxtlar, uylar tomi, romni rahiga nisbatan ma'lum ko'rinishida. Agar o'quvchilar o'rmlaridan turishsa, barcha ko'rinayotgan narsa va jismlari birga ko'tariladi, o'tirishsa pastga tushadi. Amalda ko'rinib turibdiki, ufq chizig'i bilan kuzatuvchini ko'z ko'rigi bir xil darajada joylashyapti.

Bundan ko'rinib turibdiki, barcha predmetlar yon qismlarining perspektiv yo'nalishlari qisqarib ufq chizig'iga, bir nuqtaga tutashadi.

Kubning tomonlarini davom ettirsak, bir chap tarafdagi nuqtaga boshqasi esa o'ngdagi nuqtaga tutashib, bitta emas ikkita tutash ufq nuqtasi paydo bo'ladi.


Chizmatasvirda muvaffaqiyatlarga erishish uchun perspektiva qonun-qoidalarini yaxshi bilish va tajribada to'g'ri foydalana bilish muhimdir. Shakl qandayligidan qat'iy nazar, tabiatdagi barcha narsalar, prespektiva qonunlariga (bo'ysunadi) amal qiladi.



a — ufq chizig'i. b, -b2 — tutash nuqtasi.


Kubning bir nechta holatini, perspektiva qoidalari bo'yicha tahlil qilib chiqdik. Endi kub tekislik yuzasidagi holatini topishda, ushbu qoidalardan foydalanamiz. Yonidagi konus

qoidalari bo'lmada, tag yumaloq qismi, kub bilan bir tekislikda yotadi va bitta "tutash nuqtaga" intiladi.



## 2-surat

Ko'pgina chizishni endi boshlayotgan talabalar silindr, piyola konusning yuza qismlarini chizayotganlarida suratda ko'rsatilgandek kabi hatoga yo'l qo'yadilar. (3-surat).




## 3-surat. a-noto'g'ri; b-to'g'ri.

Bittadan ortiq, ikki-uch predmetdan iborat postanovkalarda, jismlar orasidagi farqlar o'zaro mutanosibliklari, o'lchamlar yo'li bilan solishtirib topish va joy-joyiga qo'yish kabi jarayonlar bajariladi.

Predmetlarning ichki konstruktsiyasi asoslari (sinchini) yengil chiziqlar bilan chiziladi, chunki yorug' va soya qismlarini ajratganimizda ichki yordamchi chiziqlar o'chirib tashlanadi.

Tonal mutanosibliklari, hajmi va shakl kabi masalalarni keyingi qo'yilajak natyurmortda ko'rib chiqamiz.




## 2. Ikki yoki uch geometrik jismlarning gorizont chizig'idan past ko'rinishda qo'yilgan natyurmort.

Kub va silindrdan iborat bo'lgan natyurmortni gorizont chizig'idan pastroqqa joylashtirdik, ularga bir tarafdun sun'iy yoritgichdan nur tushiramiz.

Ma'lumki ko'rish satxidan pastroqqa qo'yilgan natyurmort predmetlari o'zaro joylanishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash ancha qulaydir.

Narsalar shaklini, hajmlarini chegaralarini belgilashda, tonal mutanosiblikni ajratishda, sun'iy yoritgich yengillashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Topshiriqni bajarishni boshlashdan oldin, natyurmortni qanday joylashtirish kompozitsiyasini bir nechta eskizlar orqali homaki, kichik hajmdagi rasmni bajaramiz.



Tasvirni qog'oz yuzasida chiroyli joylashtirish masalasi hal bo'lgach, natyurmortni umumiy shakliy qismlarni nisbiy o'lchamlari va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar oxista chiziladi. Jismlarni surat tekisligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to'la chizib chiqish kerak.


Hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko'zga yaqqol ko'rinmaydigan jihatlarini ham bilinar –bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **1-bosqich.**

Predmetlarning shakli, qismlari orasidagi mutanosiblikni, konstruktiv tuzilishini o'quvchi chizgilar orqali to'g'ri o'zlashtirib olgan bo'lsa, endi fikrimizni soya-yorug' qonunlarini puxta o'zlashtirish jarayoniga qaratamiz.

Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soylarining chegarasi topilgandan so'ng, har bir narsaning yorug'-soya va siyrak soya qismlari shtrixlar orqali ishlab chiqiladi.

Bu jarayon narsalarning mutanosibligini yanada ta'kidlash va shakllarni aniqroq tasvirlashga olib keladi. Jismlarning eng yorug' va eng to'q soya yerlarini aniqlab olib, qoralashni aynan shu to'q soyadan boshlaymiz. Alohida predmetlarning yorug' va soya qismlarini tasvirlashda, albatta ularni fonga nisbatan qanaqa ko'rinib turganini aniqlashda, soya tomondagi fon esa aksincha to'qroq bo'lib ko'rinadi.




### **2-bosqich.**



Masalan kubni olaylik, uning soya bilan yorug' tutashgan qismi yorug'lik kontrasti bo'lib, yorug' va soya tutashgan chegara chizig'iga kuchliroq urg'u berib ishlanadi. Tsilindrik shakliga kelsak, uning hajmdorligini ifodalashda yorug'dan soya qismga o'tish qismini asta sekinlik bilan tekis shtrixlar orqali ifodalashda ularning shakliga monand holda egilib ravon yo'naltiriladi. Pala-partish chiziqlar orqali maqsadga erishib bo'lmaydi.

Predmetdan tushayotgan soyani ifodalashda, shtrixni predmetga qarama-qarshi yo'nalishda chiziladi. Shtrixlarning yo'nalishi xar hil, tikka, yotiq, qiya, yumaloq jismlardan esa aylanma egri shakllarda bo'ladi.



### 6-rasm.

1-ma'lum bir burchak ostida; 2-ikssimon; 3-aylana-egri; 4-ikssimon aylana; 5-gorizontaal yo'nalishda; 6-kataksimon; 7-yorug'dan soyaga o'tish jarayoni.

Shtrixlar yo'nalishi, jismlarning shakli va holatiga qarab, cheksiz darajada o'zgarib borishi (chapga, o'nga, tepaga, pastga) mumkin.

Chizmatasvirning asosiy ish quroli bu, grafit qora qalam va o'chirg'ichdir. Qalamlar turlicha bo'ladi; "Konstruktor" (Rossiya) "M", "TM", "2M", "2T"; NV xorij qalami "V", "M"—yumshoqlik darajasi. "N", "T"—qattiqlik darajasi.

Yumshoq qalamlar asosan, ishning boshlang'ich jarayonida, predmetlarni joylashtirishda yengil chizgilar bilan belgilashda qo'llaniladi, chunki ortiqcha chiziqlarni o'chirishda osonlik (qu-




laylik) tug'diradi. Yana jismlarning soya va to'q qismlarida ishlatiladi. Qattiq qalam esa yorug' va ochroq qismlariga qo'llaniladi. Qalamni qattiq bosib ishlatmaslik va qog'ozni ko'p bosib o'chirmaslik lozim, yo'qsa qog'oz titilib xira tortib qoladi. Ba'zi mutahassislarning ta'kidlashicha yorug'ga ham, soyaga ham bir xil qalam ishlatishni tavsiya etadilar. Nimani qanday ishlatishni ish jarayonida tajriba o'zi to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Pastanovkadagi narsalarning hajmdor shakliga diqqat bilan maydalab ishlov beriladi.

Bir nechta jismlarni birgalikda tasvirlash, bitta narsani tasvirlashga qaratganda ancha qiyin. Gipsdan yasalgan kub va silindrdan iborat predmetlardan natyurmort tuzdik. Boshlang'ich jarayonda bunday natyurmortning afzalligi shundaki, gips oppoq bo'lganligi uchun geometrik jismlarning shakli yaqqol ko'rinadi, ularning soya yorug' va tonal tushunchalarini o'zlashtirish ancha osonlashadi. Bularni birinchisi qirrali, ikkinchisi silliq yumaloq, uchinchisi boshqa bir shaklda bo'lishi, ularni bir-biriga taqqoslash uchun qulay. Bu pastanovkada fon alohida ahamiyatga ega, u o'rtacha to'qlikdagi mato jismlarni ko'rishni osonlashtiradi.

Ushbu natyurmortni qalamda tasvirlash jarayoni, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.



1. Qo'yilgan natyurmortni tahlil qilish.
2. Surat tekisligida tasvirni joylashtirish.
3. Predmetlarning o'lchamini belgilash, konstruksiyasi, perspektiva qoidalari asosida shaklni chizish.
4. Predmetlarni tasvirdagi hajmdorligini, yorug'- soya, yarim soya, refleklar nisbatini topish, o'zaro farqi va mutanosibligini ifodalash, tugallash darajasiga etkazib ishlash.

### **3. Gipsdan yasalgan vazaning chizma tasviri.**

Murakkab formadagi predmetlar iborasining negizini., konstruktiv analiz qilishda, ularni oddiy geometrik shakllar yig'indisidan tashkil topganligiga amin bo'lamiz.

Vazaning bo'yni uzaygan konus va silindr shaklidan iborat, pastki qorin qismi tuxumsimon shaklda, oyoq qismi uzaygan konus va silindr shaklidaligini ko'ramiz.




Gipsdan yasalgan vazaga chap tarafdin sun'iy yoritkich lampadan foydalanamiz.

Har qanday jismni qog'oz satxida tasvirlashda, har doimgidek ishni kompozitsiyaviy joylashtirishdan boshlaymiz. Biz nazarda tutish lozim bo'lgan bir nechta qoidalar bor; tonal mutanosiblik – natura yoritilishi, vazadan tushayotgan soya, predmet bilan fon orasidagi vaza turgan tekislik, bularning barchasi kompozitsiyaga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Joylashtirish jarayonida, yengil chiziq-lar yordamida vazaning umumiy xarakteri belgilab olinadi. Chizgini aniq ifodalash uchun yordamchi chiziq-lardan foydalanish mumkin. Avvalombor markaz chizig'ini o'tkazib olamiz, bu chizig'imiz vazaning teng ikkita simmetrik bo'lakka bo'ladi. Bo'yi va enini, vazaning bo'yin qismi, tag taxtachasini to'g'ri topishda yordamchi chiziq-lardan foydalanamiz, buning uchun vaza bo'yin qismidan vertikal pastgacha chiziq tushiriladi, shunda vazaning tag qismi o'rtada joylashishi kerak. Chiziq-larni iloji boricha yengil, qalamni qog'ozga asta tekkizgan holda, chizmani hamisha naturaga taqqoslab ishlaymiz. Bunda asosan natura bilan o'xshashlikka intilish kerak. Vazani bo'yini egniga nisbatini o'lchab ko'ramiz, tag qismining tepa qismiga nisbatini, vazani xarakteri, chizma konstruksiyasiga aniqlik kiritilgandan so'ng, vazaning yorug'lik

va soya chegaralarini belgilab olamiz. Tonal mutanosiblikni aniqlashtirishga o'tishdan oldin, "Shar"- misolida, yumaloq jismlar suratini ishlashda; yorug', soya, refleks, yarim soya – NIMA? degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Yumaloq – hajmdor predmetlar chegarasi bo'lmagani sababli, yorug'dan soyaga o'tayotgan qismlari asta-sekin to'qlashib boradi. Lekin eng quyuq soya predmet chekkasida bo'lmaydi, ya'ni markaz tomonga bir oz surilgan bo'ladi, eng chekkada esa, yon atrofdan yoki biror jismdan aks etgan nurlar bilan yoritilgan qismi "Refleks" – bo'ladi. Ammo refleks, predmetning yorug' qismiga nisbatan to'qroq bo'lishini unutmashlik kerak.



- A – Yorug';
- B – Yarimsoya;
- V – Shaxsiy soya;
- G – Blik, oq dog';
- D – Refleks;
- E – Jismdan tushgan soya.





## 1 – BOSQICH II SEMESTR


### 1. Odam yuzidagi elementlarning gipsdan yasalgan bo'laklari, lab tasviri

Kuch quvvatga to'lgan, jismonan etuk, ideal ko'rinishdagi yosh yigit obrazi, inson qiyofasining go'zalligini tarannum etuvchi ramziy obraz. "David" haykalini, uyg'onish davrining buyuk haykaltarosh rassomi Mikelanjelo Florentsiyada yaratgan. Hozirgacha bo'lg'usi haykaltarosh va rassomlar haykalning alohida qismlarini ishlab o'rganib kelmoqdalar. Gipsdan quyilgan lab, burun, ko'z, quloq bo'laklari nusxasi bunga misol bo'la oladi.


Labning gipsdan yasalgan bo'lagini devorga yoki biror bir taxta shitga osib qo'yamiz. Foniga uncha to'q bo'lmagan, mato yoki rangli kartonni osamiz. Gips oq bo'lgani uchun yaqqol ajralib turadi, sun'iy chiroq esa formani yaxshi his qilishda yordam beradi.

Tajribasiz, endi rasm chizishni o'rganayotgan o'quvchilar labni chizayotganda, ko'pincha bir xil hatoga yo'l qo'yishadi. Lab shaklini, qismlarini boshdan – oyoq, bir xil kontur chiziqda chegaralab chiqishadi. Labni nihoyatda yengil yumshoq chiziqlar bilan ifodalash, lab tugunini chuqurroq yoki bo'rtgan qismlarini diqqat bilan kuzatish lozim. Qisqa muddatli chizgilarning bir nechtasini oldindan, yon qismidan ishlagandan so'ng, qog'ozga, planshetga chizishni boshlaymiz. Vertikal va gorizontaal yordamchi chiziqlar o'tkazamiz. Bunda lab ikki teng qismga, o'ng va chap tarafga, gorizontaal yordamchi chiziq esa, labni tepa va past qismlarga ajratadi. O'ng va chap qismlar bir xil ko'rinishda, ammo past va tepa qismlari bir-biridan shakl (forma) jihatdan farq qiladi. Yuzning elementlari shakl jihatdan turlicha bo'ladi. Qaysi millatga, qanday irqqa ta'lluqliligiga qarab va insonning yoshiga qarab shakli ham o'zgarib boradi. Suratda lab shaklining bir nechta variantlarini ko'rib chiqamiz.





1-o'ta ingichka. Nisbatan ingichka (shimollik evropoidlar); 2-nisbatan yo'g'on, O'rtacha lab (mangoloidlar gruppasiga mansub) 3-4-nisbatan bo'rtgan, o'ta tashqariga bo'rtgan. Yo'g'on lablar turli xil negroidlar gruppasiga mansub).



Inson portretini ishlash jara-yonida, inson xarakterini diqqat bilan o'rganishimiz, ularni bir-biridan farqlab turadigan jihatlarini ajrata bilishimiz katta ahamiyatga ega. Soya va yorug' qismlarni ajratish, formani tonal mutanosibligini aniqlash, plastik anatomiyasini to'g'ri tahlil qilishni nihoyasiga etkazishda ahamiyati katta.

## 2. Gipsdan yasalgan bo'laklar: ko'z tasviri.


Ko'z — “qalb ko'zgusi” deb, bejiz aytishmagan. Ko'zning holati orqali insonni ichki dunyosi, kayfiyati ijobiymi, salbiymi? — ko'p narsani anglab olsa bo'ladi. Buning uchun rassom katta tajribaga ega bo'lishi kerak, tajriba esa o'z-o'zidan kelmaydi, juda ko'p mehnat qilish, ko'p kuzatish kerak bo'ladi.

Gipsdan yasalgan ko'z bo'lagini, gipsli lab o'rniga osib qo'yasiz, o'sha fon, o'sha yoritgich, ammo hajm va shakl boshqacha.


Ko'zni tasvirlashda bosh chanoqning ko'z chuqurchasi (kavakcha) ichiga joylashgan narsa sharsimon forma ekanini o'quvchi unutmasligi kerak. Ko'z qopqog'i harakati ushbu yumaloq shakl ustini qay yo'sinda yopishini qovoqlarni qalin — yupqaligini hisobga olish kerak.

Chizishni boshlayotganda ko'pincha ko'zni surma tortgan-dek bir chiziq bilan chegaralab chiqishadi. Labni chizishda ham

ana shunday misol keltirgan edik, albatta bu tabiiy hol, birinchi taassurot yolg'onchi. Aslida diqqat bilan kuzatidigan bo'lsak, ko'zni o'ziga yarasha ichki va tashqi konstruksiyasi mavjud. Suratdagi chizmada ko'rsatilgan strelka chiziqni, ko'z yuzasi bo'yicha harakatini kuzatsak, formalarni turlicha ko'rishda ekanligini ko'ramiz. Ko'z qopqog'ining qanday qalinlikda ekanligiga e'tibor berish kerak. Ba'zilar qopqog' yoyi ko'rinmaydi, qovoq terisi to'g'ri ko'z soqqasiga tushib osilib turadi.



Xuddi labga o'xshab, shakllarning turlicha bo'lishi, uning qaysi millatga, qaysi irqqa talluqliligiga bog'liq. Ba'zan bir millatning o'zida, bir necha xil ko'zning turlari uchraydi. Ko'zni geometrik shaklda izohlaydigan bo'lsak, to'g'ridan qaralganda romb shaklida, yonidan qaraganimizda uchburchak shaklida bo'ladi (profil).



Ko'z surati

Xuddi lab ishlash printsipli bo'yicha, vertikal va gorizontaal yordamchi chiziqlar o'tkazamiz. Ko'zni ichki va tashqi konstruksiyasini yengil chiziqlar bilan belgilab olganimizdan so'ng, uning yorug', soya chegaralarini belgilab chiqamiz.


Hajmdor formasi, yorug' yarimsoya, soya, refleksi, oq dog' (Blik), shakl barcha xususiyatlarini sinchiklab o'rganib, shtrixlar yordamida ishlab chiqamiz. Gips modelining ushbu holatini chizish bilangina cheklanmasdan, bir nechta variantlarini,

to'g'ridan, yondan, yotiq holatini xullas bir qancha ko'rinishda qisqa muddatli chizgilarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi. Chunki ko'z, inson portretini ishlashda eng muhim va murakkab qismdir.

### 3. Gipsdan yasalgan bo'laklar: Burun tasviri.

Aslida burunni ishlashdan oldin, uning qanday xarakterga (ko'rinishiga) egaligini ya'ni qirra burun, puchuq burun, yoki uch qismi tikka qaraganmi shularga e'tibor berish kerak.

O'quvchi chizayotganda, avvalambor burun tashqi formasini qandayligini ifodalovchi, ichki suyak anatomik (strukturasi) o'zagi qanday shaklni ifodalashini kuzatish kerak.




O'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun quyidagi sxemaga diqqatni tortamiz. Burunni oldi tekisligi qosh do'ngagi bilan suyak qirrasini o'rtasigacha (1) trapetsiya shaklini ifodalaydi. Suyak qirrasini o'rtasidan suyak qirrasigacha yana cho'zilganroq trapetsiya shaklini ko'ramiz (2); undan do'ngak tugayotgan qismigacha 3 chi trapetsiya, lekin teskari holatida va nihoyat so'nggi trapetsiya burun uchigacha bo'lgan qism.

Labni va burunni tasvirlashda markazdan o'tgan vertikal chiziq, chap va o'ng tarafni bir vaqtda, parallel ravishda solishtirib ishlash tavsiya etiladi. Ko'zning bir tarafi bo'lgani uchun, bunday juftlikda (simmetrik) solishtirib ishlash usuli



qo'llanilmaydi. Gipsdan yasalgan burundagi nuqsonlarni haykaltarosh bartaraf etib bo'lgan. Faqat to'g'ri tasvirlab to'la o'xshashlikka erishsak bo'ldi. Burun shaklini qanday boshlab, qanday tugatish jarayonini metodik qo'llanmada ko'ramiz. Burun shaklining qanday bo'lishi burun suyagini qanchalik holatda bo'lishi, suyak ichidan o'sib chiqqan paylar o'zaklarning qanday rivojlanishiga ham ko'p narsa bog'liq. Irqiy va milliy farqlar haqida ilgari ham gapirib o'tgan edik. Demak, - Cho'ziqroq (ingichkaroq) forma evropoidlarda, O'rtacha forma - mongoloidlarda, Keng forma - negroidlarda bo'ladi.

Har bir topshiriqni turli ko'rinishlarda va bir nechta variantlarda bajarish tavsiya etiladi. Albat-ta gips bo'lishi model shart emas. Har xil yosh-dagi, turlicha bo'lgan, millati, jinsi tirik inson-larni diqqat bilan o'rga-nish, ko'p ishlash orqali yaxshi muvaffaqiyatga eri-shiladi.




#### 4. Gipsdan yasalgan bo'laklar: quloq tasviri.

Har bir odamning qulog'i o'z surati, o'zining xarakterli xususiyatiga ega. Quloqni ishlash jarayonida, uning aniq to'g'ri joyini topish boshni chekka qismiga chiqib ketmasligiga, yoki jag' - suyagidan pastroqqa surilib ketmasligiga e'tibor berish kerak. Quloqni pastki yumshoq qismi jag' suyagidan bir oz yuqoriroqda va jag' suyagining qirrasini qisman yopib turishi kerak. Yanoqdan o'sib chiqqan suyakka quloqning kavagi bilan bir joyda tutashadi.

Buni har bir o'quvchi o'zida tekshirib ko'rishi mumkin. Quloq kavagi bo'ylab vertikal chiziq o'tkazsak, jag' suyagiga parallel bo'lib joylashadi, buni sxemada kuzatamiz.

Ushbu qoidalarni takrorlayotganimizda, Devorda osilib turgan gipsdan quyilgan Quloq modelini, sinchiklab har tarafdin



kuzatamiz. Quloqning sallaga o'xshash burama formasi, plastikasini diqqat bilan o'rganib ishlaymiz, shtrixlarni forma bo'yicha yo'naltirib chizish kerak. Quloq asosan boshning yon tarafidan (profil) yaxlit holda ko'rinadi. To'g'ridan (fas) quloq uzayib qisqa bo'lib ko'rinadi. Sochi o'siqlarda, hamda ayollarda quloq ko'pincha yopiq turadi, demak quloq har doim ham aktiv rol o'ynamas ekan.

Shuning uchunmi, ko'p rassomlar yuzni boshqa qismlariga qaraganda quloqni tasvirlashda, bee'tiborroq bo'lishadi. Biz bari-bir e'tiborli bo'lishimiz, portretni barcha qismlarini diqqat bilan o'rganishimiz kerak bo'ladi.

Shu yo'sinda, odam yuzidagi elementlarning gipsdan quyilgan bo'laklari birma-bir o'rganib chiqiladi. Chunki portretni turli holatda ishlashga to'g'ri keladi. Xulosa shuki, yuz qismlari turli

millat va elatlarda o'ziga xos xarakterda ekanligiga amin bo'ldik. Bu barcha urinishlar, inson portretini ishlashga o'tganda, o'z hosilini beradi.



## 2 – BOSQICH III SEMESTR

### 1. Antik dunyo haykallaridan erkak kishi byustining chizmatasviri


Ushbu bosqichda odam boshini chizishni o'rganamiz, bu juda murakkab va juda qiziqarli jarayon. Birinchi modelimiz klassik haykal asarlaridan biri bo'lmish Appolon haykalidir.


O'qituvchi o'quvchilarga, boshning holatini, yoritkich effektini hamda modelning kompozitsion yechimini to'g'ri topishdagi ahamiyati haqida tushuncha berib o'tadi.

O'quvchi chizmani boshlashdan oldin byustni har tarafdin aylanib kuzatib chiqadi. Ya'ni naturaning umumiy xarakterini, boshning holatini tekislik fazosidagi o'rni qandayligini tahlil qilib chiqadi. Bunga qisqa muddatli chizgilar orqali erishadi. Bunday sharoitda asosan (komponovka) joylashtirishga e'tiborni qaratish lozim.

Qog'oz satxiga tasvirni yengil chizgilar bilan chamalab chiqamiz. Ushbu topshirig'imiz 6 bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda – boshning hajmi qanday bo'lishi – enining bo'yiga nisbatini (proportsiyasi) aniqlab beradi.

Kompozitsion joylashtirishda shablonga aylanib qolgan ba'zi uslublardan, ya'ni yuz – qaragan tarafga ko'proq bo'sh joy qoldiriladi. Bu shart emas, boshni markazga yaqinroq olsa ham bo'ladi. Boshning holati formasi va xarakterini belgilash bu ikkinchi bosqichning vazifasidir. Bunda burun, ko'z, og'iz qismlari yengil belgilab chiqiladi. 1-bosqich. Boshning yuz qismi bo'yiga qarab 3 ta teng bo'lakka bo'linadi; peshona soch qoplama-sining chegarasidan (a-b) to qosh yoyigacha undan to burun (b-g) (asosiga-






cha) ildizining pastki qismigacha va undan to daxanni (g-d) asosigacha bo'lgan oraliq. Qosh yoyidan, burun asosigacha bo'lgan oraliq ham 3 ga bo'linadi, qosh yoyi qirrasidan, (ko'zni burchagidan gorizontaal chiziq o'tkaziladi) 1 - bo'lak hosil bo'ladi (b-v). Burun o'zagidan to daxangacha bo'lgan oraliq ham 3 ga bo'linadi, bu burun o'zagidan to labning o'rtasidan (gorizontaal) chiziqqacha 1 - bo'lak suratda ko'r-

satilgan. (G-e).

Ikki ko'z oralig'i, ko'zning eniga barobardir, quloqning balandligi burun uzunligi bilan barobar.



Bu kabi qonuniyatlar, boshning proporsional taqsimlanishi, qonuniyati qadimda go'zallik kanoni deb yuritilgan. Bizning davrga kelib ushbu qoidani bilish, boshlayotganlar uchun naturani to'g'ri ko'rishni o'rgatadi.

3 - bosqichda katta formadan, yuzning detallari konstruksiyasini, anatomik jihatlarini diqqat bilan kuzatib ishlaymiz. Soyaning barcha qismlarini, yirik va yumshoq shtrixlar bilan yopib chiqamiz. Boshning xarakterini topishga harakat qilamiz.

4 – bosqich. Yuz qismlarini belgilashda, oʻtkir kesik, qirrali chiziqlardan foydalangan edik. Ushbu bosqichda formaning plastikasini topishda, yorugʻ soya qonunlaridan toʻgʻri foydalangan holda, koʻz, burun, lab qismlari nozik formalarini diqqat bilan aniqlashtiramiz.



5 – bosqich yaxlitlikdan, katta qismlardan alohida kichik detallarga oʻtish, jarayoniga urgʻu beriladi. Asta sekin sochlarning toʻlqinsimon plastikasini, boshning formasi boʻyicha harakatini sinchiklab kuzatib ishlab chiqishga harakat qilamiz. Boshning umumiyligi, yaxlitligini saqlagan holda, yorugʻ qismlardagi hajmdor formalarni, qalamni qattiq bosmagan holda, mayda shtrixlar yordamida ishlov beriladi. Orqa fonni biroz toʻqroq qilib shtrixlab chiqamiz. Bunda yuz va sochning yorugʻ qismlari yaqqol ajralib chiqadi.



Soʻnggi oltinchi bosqichda, detallashtirish jarayoni, tonal mutanosiblik, yorugʻ va soya qismlarini tarashlab ishlashga





o'tiladi. Hatto u gipsdan yasalganligi darajasigacha erishiladi faktura). Oq dog'dan (blik) tortib refleksigacha bo'lgan joylarini o'zaro solishtirib taqqoslab chiqamiz. Refleks, yorug' qismidan ko'ra bir oz to'qroq bo'lishini unutmasligimiz kerak. Juda yorug' va to'q soya joylariga urg'u beriladi. Orqa, ya'ni ikkinchi va uchinchi plandagi yorug' soya kontrastini, biroz yumshoqroq olishga to'g'ri keladi.

To'q soya qismlari teshikka o'xshab qolish darajasigacha, qoraytirib yubormaslik kerak. Shtrixlar qog'ozni (fakturasini) buzmaganda holda yengil, yumshoq tusda beriladi.

Chizish metodikasini bosqichma-bosqich olib borish yaxshi samara beradi. Birinchi bosqichdan, uchinchi bosqichga qarab sakrab o'tishlar o'quv materialini o'zlashtirishda sekinlashuvga sabab bo'ladi. Masalan, asosiy katta formani topmasdan turib, mayda detallarga ishlov berish hato xisoblanadi. Baribir barcha detallar yaxlitlikka bo'ysunishga majbur bo'ladi.

Chizayotgan planshetimizni, model yoniga olib borib, ko'zimizni biroz qisqan holda, modelni ishimizga solishtirsak barcha hato kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'tgan topshiriqlarda, yuzning alohida qismlarini bo'laklarga ajratib, ishlagan edik. Va nihoyat, yaxlit bosh tasvirini chizishni ham nihoyasiga etkazdik.

Oldinga qo'yilgan murakkab va qiziqarli topshiriq jarayoni, chizmatasvirni barcha qonun-qoidalaridan to'g'ri foydalangan holdagina amalga oshadi.

## **2. Odam bosh tuzilishining kesma gipsdan yasalgan qiyofasi: "Bolvanka"ning chizmatasviri.**

"Katta shaklni" ko'ra bilishni o'rganishda metod va usullari turlicha bo'lib, maqsadga erishishda eng sinalgan usul bu boshning (metod obrubovki) shakl-hajmini kesma usulda



ifodalashdir. Ushbu metoddan, uygʻonish davri rassomlari ham keng foydalanishgan. Hozirgi davr rassomlari ham bunday usuldan foydalanishadi.

Kesma uslub (forma) shaklni sunʼiy ravishda soddalashtirish va oddiy geometrik shakllar orqali qulay va oson qilib koʻrsatadi. Masalan, bosh — sharsimon yoki tuxumsimon; yelkadagi qoʻl — silindr; burun — prizma va hokazo.

Modelni sunʼiy yoritgich orqali yoritib, orqa planga oʻrtacha toʻqlikda mato tortib qoʻyamiz. Yoritgich yordamida shaklni, sinq tekisliklar bilan oʻzgartirib, hajmni qanday hosil boʻlishini aniq kuzatamiz.

Yorugʻ va soya chegarasida aniq chiziq paydo boʻladi va shaklni ifodalashda konkret tekislik hosil boʻladi. Bular toʻrtburchak, romb, trapetsiya, prizma, piramida, uchburchak, silindr kabi geometrik shakllar yigʻindisidan iborat boʻlgan bir butun formadir.

“Katta yaxlit shaklni” geometrik konstruktiv usulda ifodalash, oʻquvchiga keyinchalik mukammal shakllarni ishlashda juda qoʻl keladi. Tonal farqlashga oʻtish jarayonida har bir tekislik satxiga tus berishda, ularni eng yorugʻ, eng toʻq, yarim soya, refleks kabi qismlarini toʻgʻri analiz qilish, umumiy formani yaratishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Keyinchalik tirik odam portretini ishlash jarayonida, yuz qismi formasini kesma uslubda, konstruktiv shakllarga boʻlib ishlashni, oʻqituvchi oʻquvchilarga topshiriq sifatida





berish yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqni natyurmortda ham qo'llasa bo'ladi.

Murakkab predmetlardagi "Katta formani" ko'ra bilishni, o'quvchilar tezda o'zlashtira olmaydilar. Boshlayotganlar uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi tushuntirish jarayonida quyidagi usulni qo'llashi mumkin. Masalan, murakkabroq predmetni marli bilan o'rab chiqadi, predmet "Katta formasini" ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir topshiriqqa ko'nikma hosil qilish ko'plab mashqlar orqali erishiladi. Keyingi bosqichga o'tishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmaydi. Oldingi jarayonni mustahkam o'zlashtirganimizdan so'nggina, keyingi jarayonga o'tiladi. Chunki navbatdagisi, oldingi jarayonga suyanish qonuniyatidir.

### **3. Odam bosh suyagining chizmatasviri**

Boshning xarakterini, shaklini to'g'ri topishda, odam bosh suyagini o'rganishning ahamiyati katta. Bunda asosiy e'tiborni bosh chanog'i suyagi va yuz qismlarini o'rganishga qaratamiz.

Bosh chanoq asosan oltita asosiy suyakdan iborat - bular; peshona suyagi, tepa suyagi, ikkita yon chakka va orqa ensa suyaklardan iborat bo'lib, bir-biri bilan choklar orqali birlashib, yaxlit boshni tashkil qiladi.

Yuz qismidagi juft suyaklar; - ikkita yuqori jag' suyagi, bir juft yanoq suyagi, bir juft burun suyagi, toq pastki jag' suyagi va boshqalardan iborat. Kalla suyagining yuz qismida, ikkita ko'z chuqurchasi, burun teshigi va og'iz bo'shlig'i bor.


Suyaklarni qanday rivojlanganligiga qarab, odam xakteri har xil ko'rinishda bo'ladi. Ba'zi odamlarning yuzi yumaloq bo'lsa, boshqasi cho'zinchoq, peshonasi katta, yoki jag' qismi og'ir, osilgan va hokazo.

Bunday farqni biz, bosh suyagini diqqat bilan o'rganganda ilg'ab olamiz. Xarakterni o'rganishda bosh suyak qismlarini alohida kuzatsak, qismlarni normal holatdan, keragidan ortiq katta yoki kichikroqligini kuzatamiz. Solishtirishlar natijasida portret xakteri yuzaga keladi.

Qismlarning o'ta katta, yoki kichikligi disproportsiya deyiladi. Bosh suyagini bir necha holatda, yonidan, oldidan, past-



dan, tepadan, xullas har hil ko‘rinishda chizish tavsiya etiladi. Qancha ko‘p chizsak, shuncha foydasi ko‘p.



Buni asosiy topshiriqdan tashqari bajarish kerak. Hozircha rejaga asosan bosh suyagini uch xil ko‘rinishda tasvirladik.

#### **4. Gudonning gipsli anatomik bosh chizmatasviri**

Oldingi etapda bosh suyagini o‘rganishni mustahkam o‘zlashtirgan bo‘lsak, mushak va muskullardan iborat, gipsdan quyilgan anatomik boshni chizish ancha yengilroq bo‘ladi.

Endi esa, mushaklar faoliyatini o‘rganuvchi anatomik atlasini varaqlashimizga to‘g‘ri keladi.


Bosh bilan bo‘yin muskullarini, chaynash muskullariga, mimika muskullariga va boshni harakatga keltiruvchi muskullarga bo‘lish mumkin. Chaynash muskullari pastki jag‘ni ko‘taradi, jag‘ni oldinga va yon tomonlarga qimirlatadigan boshqa muskullar ham bor.

Mimika muskullarining qisqatish yoki cho‘zilishi, suyaklar harakatlanishiga emas, balki teri ba‘zi qismlarining siljishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida yuzning qiyofasi va mimikasi o‘zgaradi.

Bu esa, insonning qanday kayfiyatda ekanligini, ichki holatini yaqqol ifodalab beradi. Ushbu sxemada yuzning (emotsional) holatlarini kuzatamiz.

Atrofimizdagi insonlarning ichki va tashqi holatlarini diqqat bilan kuzating. Ularning mimikalari o'zgarishiga e'tibor bering. Anatomik bosh deyilishiga sabab, terining ustki qismi olib tashlangan, hatto bosh qismining suyaklari aniq ko'rinib turibdi. Suyak va muskul, mushak qismlari aniq ifodalangan.

"Bolvankani" eslasak boshdagi yaxlit geometrik – tekisliklar, bunda detallarga, muskul va paylarga aylanish jarayoni, namoyon bo'la boshlaydi. Bu esa, tirik odam portretini ishlashga o'tishda ko'prik vazifasini bajaradi. Muskularning qay darajada rivojlanishiga qarab portret harakatlarini belgilash mumkin. "Apollon" byustini tasvirlashda olti bosqichli jarayonni ta'kidlagan edik.




a) diqqatni jamlash; b) fikrlash, idrok qilish; v) og'riqni ifodalash; g) kulgini ifodalash; d) yig'i; e) dodlab yig'lash, qayg'u, istirob; j) norozilik bildirish, nafratlanish.

Xuddi shu kabi, qog'ozga joylashtirish, ishni katta bo'laklardan boshlash, shakl yaxlitligini saqlagan holda, bosqichma-bosqich olib boriladi. Bosqichlarni hatlab o'tmasdan, birma – bir navbati bilan o'tish kerak.

Ko'z – qosh atroflaridagi muskul–paylarga shtrixlar aylanma harakat bo'ylab beriladi. Kalla, bo'yin qismidagi barcha muskullar; jag', lab, peshona, chakka va bo'yin qismida, shtrixlar muskullar – paylar yo'nalishi bo'yicha beriladi.

Formani soya – yorug' qismlariga ajratishda, detallarga ishlov berishda, yaxlitlikni saqlab qolgan holda ishlov beriladi. Buni to'rtinchi va beshinchi bosqichda amalga oshiriladi.



So'nggi bosqichda eng yorug' va to'q soya qismlariga, eng bo'rtgan, bizga yaqinroq qismlariga urg'u berib, konkretlash-tirish jarayoni orqali ushbu topshiriqqa xotima yasaymiz. Turli ko'rinishlarda, qisqa muddatli chizgilarning amalga oshirilishi yaxshi natija beradi.



## 2 – BOSQICH IV SEMESTR

### 1. Odam boshidan qisqa muddatli chizgilar

Ushbu topshiriqni boshlashdan oldin, odam boshini bir nechta ko‘rinishda; – qanday holatda ishlanishi, har biriga qancha vaqt ajratilishi, kabi jarayon mo‘ljallab olinadi.

42 soat – uchga bo‘linganda, 14 soatdan to‘g‘ri kelishini aniqlab olgan holda, odam boshining birinchi holatini tasvirlashni, boshlaymiz. Barcha yig‘ilgan amaliy bilimlarimizni aqlan jamlab, tirik odam portretini chizamiz.

Qimirlamay qotib turadigan haykalga nisbatan, tirik odam portretini ishlash juda murakkab jarayon.

Boshlanishiga qo‘yilayotgan natura erkak kishi bo‘lgani yaxshi. Yuz qismlari ifodali, tashqi xarakteri qiziqarli, anatomik jihatlari talabga javob beradigan, kattaroq yoshda bo‘lsa, yanayam yaxshi.

Iloji boricha barcha uchta holatdagi chizgilar, bitta plan-shetga joylashtirilsa yaxshi bo‘ladi. Birinchi ko‘rinish, aytaylik yon tarafdin bo‘lsin, ikkinchisi oldindan, chap yoki o‘ng tarafga qaragan bo‘lishi mumkin. Ammo bularning barchasini, birma-bir chamalab, yengil chiziqlar bilan huddi bosh suyagini ishlaganimizdek joylashtiramiz.

Birinchi ko‘rinish yon tarafga qaragan (profil) holati. Yengil harakatlar bilan qalamni qattiq bosmasdan, boshning asosiy katta shaklini (silueti)ni chamalab olamiz, boshning enini bo‘yiga nisbatan solishtirib, bosh xarakterini aniqlashda shaklni cho‘ziq yoki yumaloq ko‘rinishda ekanligini bilib olamiz.

Portret ishlashda, gudonni, byustni ishlaganimiz kabi olti bosqichli jarayonni qo‘llaymiz, faqat topshiriq qisqa muddatli bo‘lgani uchun, tezroq ishlashimizga to‘g‘ri keladi.

Yuz qismlarini; ko‘z, burun, lab, quloq kabi detallarning o‘zaro o‘lchamini belgilab chiqamiz.

Peshona burun uchi, daxangacha teng uchga bo‘linadi, burun uzunligi, quloq balandligiga teng. Gorizental chiziqlar o‘tkazganimizda bunga amin bo‘lamiz.



To'g'ridan ishlaganimizda, yuz qismlari juft-juft bo'lganligi uchun, ularning o'rnini bir vaqtda, parallel chiziqlar orqali belgilab ishlanadi. Qosh yoyi bilan, ko'zning yosh nuqtasi oralig'i, burunning uchigacha, uchta teng bo'lakka bo'linadi, ikki ko'z oralig'iga, bir ko'zning eni to'g'ri keladi. Bu kabi nisbatlarni oldingi topshiriqlarda ham ko'rib chiqqan edik.

Yuz holatini markazdan chaproqqa qaragan ko'rinishida, (q) ko'z va qoshlar orasi perspektiva qoidalari asosida ishlanadi. Chap ko'z, biroz pastroqda joylashadi.

Gips modellardan tirik naturaning farqi nimalarda ekanini ko'rib chiqamiz; ko'z qorachig'ining yaltirashi, yuzdagi ajinlar, sochlarning buralib yoki to'zib turishi, ichki psixologik holati kabi jihatlarga ega.

So'nggi bosqichda, ana shu kabi jihatlarini, yana ham yoritib berishga harakat qilamiz.

Portretni turli holatlarda ishlashni o'rganishimiz, kelajakda tematik kompozitsiyalar ishlashimizda, turli qahramonlar obrazini yaratishimizda uning ahamiyati katta.



## 2. Odam boshining murakkab burilish holati chizma tasviri

Chizmasavirni bosqichlar bilan ishlash metodikasi, huddi gips va odam portreti singari bo'lib, unda boshning formasini qurish qonunlari ham o'zgarmay qolgan. Ammo ish uslublarida


bilim va mahoratni oshiruvchi omillar (metodlar) o'zgarib boraveradi.

Murakkab burilish holati deganda, boshning yelka qismiga nisbatan boshqa yo'nalishga o'g'irilishi, bosh biroz egilganroq bo'lishi mumkin, hullas murakkab holatdagi, o'rta yoshdan kattaroq erkak kishini o'tqazib, sun'iy yoritgichdan foydalanamiz. Chizishni har doimdagidek qog'ozga tasvirni joylashtirish kompozitsiyasidan boshlaymiz. Yengil chizgilar bilan boshning egilgan holatini, umumiy xarakterini belgilab olamiz. Peshonadan burun orqali dahangacha markaziy chiziq tortiladi va yuz qismlarining proporsiyasi belgilab chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda aniqlik talab qilinadi; - birinchi navbatda yuz qismlarining konstruktiv qurilmasini umumiy formaga bog'lash, soya – yorug' qismlarni chegaralarini belgilab chiqish va h.k.

Uchinchi bosqichda. Boshning asosiy qismlarini to'g'ri topib olgandan so'ng, ular shaklini yengil shtrixlar bilan yorug' – soya qismlariga ishlov beramiz.

Ko'zning gipsdan yasalgan bo'lagini alohida ishlagan edik. Tirik odam ko'zini ifodalashda uning holatini kuzatamiz, ko'zlar g'amginmi?, chaqnaq turibdimi, chunki ko'zda inson ichki holati aks etadi. "Ko'z – qalb ko'zgidir" deb be'jiz aytishmagan. Shuning uchun ko'zni alohida e'tibor bilan ishlash kerak.



Yuzning eng bo'rtgan qismlari bu, burun peshona bo'lib, ayniqsa burun formasini chiqarishda, eng yorug' (blik)ni va eng to'q, soya qismiga (aktsent) urg'u berilsa yana ham oldinga chiqadi.



Yorug'dan asta-sekin to'q soyaga o'tishdagi oraliqda uchraydigan ajinlarni, och-to'q dog'larni haddan ziyod bo'rttirib, urg'u berib ishlash, yuzdagi yaxlitlikni yo'qotishga sabab bo'ladi. Ko'zga tashlangan barcha narsalarni, ko'r-ko'rona ko'chirib olish hatodir. Uning formasini, hajmini to'g'ri ifodalashga yordam beradigan omillargagina diqqatni qaratish kerak.

To'rtinchi bosqich — ishni tugatish va yakun yasash. So'nggi bosqich eng murakkab va mas'ul jarayondir.

Bu yerda qalam yoki rezinka bilan katta hajmda ish olib bo'rilmaydi. Kerakli yerlariga qalam bilan, bir necha shtrixlar berilsa kifoya, surat jonlanib ketadi, yoki rezinka bilan ba'zi shtrixlarni yumshatish orqali, kerakmas detalni orqa planga ketkazishga erishamiz. Bunda o'quvchidan katta mohirlik (sabr) va mahorat talab etiladi. O'ylamay shoshma-shosharlik bilan qilingan nojo'ya harakatlari, chizmatasvirni buzib ishdan chiqarishi mumkin.

“Yetti o'lchab bir kesish”, shioriga amal qilish va yodda tutish lozim bo'ladi. Portret san'ati hujjat dalilli haqiqatni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi — buni fotografiya juda yaxshi eplaydi.

Rassomdan juda chuqur psixologik ichki holatni ochib berish talab qilinadi, tomoshabinni portrettdagi eng asosiy, eng xarakterli xususiyatlarini ko'rishga e'tiborini jalb qilishi kerak.

Portret san'ati tahminiylilikni, chala aytilganlik holatlariga toqat qilolmaydi. Rassom chizilayotgan portret haqida hamma haqiqatni, uning qiyofasi va his tuyg'ularini to'la oxirigacha ochib berishga majburdir. Bu yerda oldindan tayyorlab qo'yilgan retsept yo'q. Har bir rassom o'zi qanday ko'rishini suratda ifodalashga harakat qiladi. Birov aniq detalli chizgini yoqtirsa, boshqasi (forma) shaklning umumiy ifodasini ko'radi.

Orttirilgan tajribalarni yanayam mustahkamlash uchun ko'p chizishimiz kerak, imkon bo'lmaganda o'zimizni oynaga qarab



chizsak ham bo'ladi. Har bir topshiriqni maromiga etkazib bajarishimiz, keyingi bosqichda zimmamizga yuklatiladigan, yanayam murakkab vazifalarni to'g'ri bajarishga asos bo'ladi.


### 3. Odam boshi, yelkasi va qo'lining chizmatasviri

Portret ishlashda orttirgan tajribamizdan kelib chiqqan holda, yarim qomatli portretga ikkilanmay o'tsak ham bo'ladi. Boshlanishida boshning yelka qismi bilan qanday bog'lanishini o'rganishda, bir qator qisqa chizgilarni amalga oshiramiz.

Yelka kamari ikkala qo'l uchun umumiydir. U ikkita kurak va ikkita o'mrov suyagidan hosil bo'lgan. Bosh, bo'yin yelkaga qanday bog'lanadi, qo'l yelkaga qanday bog'lanadi, bunga javobni anatomik atlasda ko'rib chiqamiz.

Taxminiy kompozitsion eskizga asoslangan holda, shaklni qog'ozga joylashtira boshlaymiz. Joylashtirishda asosan portret va qo'lga ko'proq e'tiborni tortishga harakat qilishimiz kerak. Yelka, qorin, bel qismlari ikkinchi planga o'tadi.

Boshning bo'yin bilan bog'lanishi, ayniqsa bo'yin va boshni yelka kamariga konstruktiv joylashishi, o'quvchi uchun biroz muammo tug'diradi. Yelka kamarini tepadan kuzatganimizda yuza qismida romb shakli yuzaga keladi. Uning taraflari, ikkita kurak AB va BC va ikkita o'mrov suyagidan AD – DC hosil bo'ladi, rombni diagonal chizig'i AS bo'lib, ushbu romb-



ning o'rtasida silindr shaklidagi bo'yin joylashadi. Yelka kamari eng harakatlanuvchi qismlardan bo'lib, tirik natura harakatlana-yotgan paytda aniq ko'zga tashlanadi. Qo'l suyagining yelka qismiga bog'lanishi, barmoqlarning qanday suyaklardan iboratligi, muskul va paylarning bir – biriga bog'lanish plastikasini, diqqat bilan o'zlashtirishimiz lozim.

Model kiyimda o'tirgan bo'lsa ham, ichki anatomik konstruksiyasini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqamiz. Boshning holati, bosh bilan qo'l oralig'idagi masofa, yelka bilan tirsak va tirsakdan kaft bo'g'inigacha bo'lgan, proporsiyalarni topishga harakat qilamiz.

Qo'lni tizza ustiga qo'yishimizdan maqsad, birinchidan, qo'l tizza ustida qimirlamay mahkam o'rtnashib turadi, ikkinchidan, qo'l kaftining biroz boshga yaqinroq bo'lishidir. Tizza oyoq qismini ko'rsatish shart emas.



Tonal farqlariga o'tish jarayonida, orqa planga, ortiqcha urg'u bermaslik kerak. Asosiy kuchni oldindagi qo'l qismiga barmoqlar xarakterini ochib berishga harakat qilish kerak. Barmoqlar ham, bir alohida portret bo'lib, inson xarakterini, ichki olamini topishda muhim rol o'ynaydi.

Ko'z, burun, lab, qosh, soch qismlarni shtrixlar bilan aniqlashtiramiz. Katta formadagi yaxlitlikni yo'qotmagan holda, detallarga urg'u (aktsent) berish yakunlovchi bosqichda amalga oshiriladi.

Inson portretini, gavdasini chizish qonun qoidalarini o'rganish jarayonida, o'quvchi bilimini yana bir bor teshirib ko'rish kerak. Unga bir qancha savollar berish va bir qator mashqlar bajarishini kuzatishimiz kerak.


Ishga ilmiy yondashmaslik iste'dodni so'ndiradi. O'quv — chizmatasvirning vazifasi — o'quvchilarni bilim bilan qurollantirish, kelgusi ijodiy ishlarni amalga oshirishda ishonchli tir-



govich bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy yondashish, rassomga san‘atning barcha qiyinchiliklarini oson o‘zlashtira olishiga yordam beradi.

Ilmiy — nazariy yondashish bo‘lmasa o‘quvchi passiv, bemaqsad, naturadan ko‘chirib oluvchiga aylanib boradi. Yetarli darajada bilim va mahoratga ega bo‘lmagan o‘quvchi ko‘pincha, ajoyib tarzda o‘ylab topilgan kompozitsiyadan yuz o‘giradi, Uni qiyin (rakurs) xolatlarni ifodalash cho‘chitadi. Qo‘lni, barmoqlarni jo‘shqin harakatini asarga olib kirishdan, o‘zini olib qochishga harakat qiladi, chunki qo‘l barmoqlarini, aniq ifodalay olishiga kuchi etmasligini xis qiladi.

Realistik chizmatasvir qonunlarini yaxshi o‘zlashtirgan rassom, har qanday kompozitsion, portretni chiroyli, go‘zal, yaxshi ifodalab bera oladi.



### 3 - BOSQICH V SEMESTR

#### 1. Odam skeleti (suyaklari) chizmatasviri.

Inson qomatini haqqoniy to'g'ri ifodalashni nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki uning ichki konstruksiyasini ya'ni sinchini yaxshi o'rganishimiz kerak.

Odam skeleti qanday qismlardan iborat; ushbu qismlar qanday funktsiyani bajaradi? kabi savollarga javob izlagan holda, skeletni boshdan oyoq kuzatib chiqamiz.

Kalla suyagini o'tgan mashg'ulotlarimizning birida ko'rib chiqqan edik. Kalla suyagi umurtqa pog'onasiga o'tkazib qo'yilganga o'xshaydi. U qadar baquvvat bo'lmagan muskullar, kallani tikka holatda ushlab turadi.

Umurtqa pog'onasi skeletning asosi bo'lib, tananing, qo'llar va boshning hamma og'irligi shunga tushadi. Umurtqa pog'onasi 33-34 ta umurtqadan iborat. Umurtqaning pastroq belga yaqin qismi yaxlit suyak bo'lib dumg'aza deb ataladi.

**Ko'krak qafasi.** Ko'krak umurtqalari 12 juft qovurg'a bilan birikadi. Qovurg'alar egik ensiz plastinkalar shaklida bo'lib, uning oldingi uchi tog'aydan iborat. Ko'krak umurtqalari, qovurg'alar, ularning tog'aylari va to'sh suyagi ko'krak qafasini hosil qiladi.

Yelka kamari ikkita ko'krak va ikkita o'mrov suyagidan iboratdir. Yelka kamari ikkala qo'l uchun umumiydir. Kurak — uchburchak shaklidagi suyak. Kurakning burchaklaridan birida chuqurcha bo'lib, bu chuqurchaga yelka suyagining kallagi kirib turadi.

**O'mrov suyagi** — egik suyak bo'lib, bir uchi bilan kurakka, ikkinchi uchi bilan esa to'sh suyagiga birikkan.

**Qo'l.** Qo'l skeleti yelka suyagi, tirsak suyagi, bilak suyagi va ko'pdan-ko'p panja suyaklaridan iborat. Panja suyagi kaft usti suyaklari. Kaft suyaklari va barmoq suyaklaridan hosil bo'lgan. Kaft suyaklari beshta bo'lib, kaftni hosil qiladi. Qo'l portretini

ishlash uchun, barmoq suyaklarini diqqat bilan o'rganishimiz lozim.

Oyoq skeleti chanoq kamaridan, ya'ni chanoqdan va oyoqdan iborat. Chanoq kamari bir juft yassi chanoq suyaklari bilan dumg'azadan hosil bo'lgan chanoq suyagi skeletni son suyagidan, boldir suyagidan, oyoq panjasi suyaklaridan iborat. Son suyagi — skeletning eng uzun suyagidir. Son suyagining yuqori uchi shar shaklida bo'lib, kallak deb ataladi. Kallak chanoqning bo'g'im chuqurchasiga tushib turadi va chanoq-son bo'g'imini hosil qiladi.

Boldir tizza ko'zidan pastda, ikkita uzun suyakdan iborat bo'lib, sirtida joylashgani kichik boldir suyagi deyiladi.

Tizza ko'zi uchburchak shaklida kichikroq bir suyakdir. Tizza bo'g'imi oyoqni buklash va yozishgagina imkon beradi.

Oyoq panjasi tovon usti suyaklari, kaft suyaklari va barmoq suyaklaridan hosil bo'lgan. Tovu usti suyaklaridan biri bilan boldir suyaklari birikib asosan bukish va yozish harakatlarini bajarishga imkon beradigan bo'g'im hosil qiladi. Oyoq kafti 5 ta uzun suyakdan iborat. Barmoq suyaklari barmoqlar skeletini hosil qiladi. Ularning soni ham, qo'lning barmoq suyaklari sonicha bo'ladi.

Skelet yuqori va pastki qismini qog'ozda belgilab olganimizdan so'ng, gavda qismini teng ikkiga bo'lamiz, bunda markaziy chiziq chanoq suyakning birikkan nuqtasidan o'tadi. (A) (suratda ko'rsatilgan). Ushbu qonuniyatni bilishning o'ziyoq, gavda hajmi tasvirini qog'ozga to'g'ri joylashtirishga erishamiz, keyinchalik esa yaxlitlikdan kichikroq detallarga o'tish jarayoni osonlashadi. Gavdani ikki teng bo'lakka bo'lingan nuqtani topib oldik, shu zaxotiy oq gavdani 3 ta teng bo'lakka ajratamiz. Bular: yelka kamaridan — chanoq suyagigacha (BV), chanoq suyagidan tizzagacha (VG), tizzadan oyoqni asosigacha (GE). Bosh esa, gavda uzunligiga nisbatan solishtirsak ( $7\times$ ) marotaba joylashadi (boshni hisobga qo'shganda).

Odatda o'tirgan naturani chizayotganda, gavdani yuqori qismi (tors)ni uzunroq qilib, tizzadan past oyoq qismini kaltaroq qilib ishlash hollari ko'p uchraydi.

Yelka suyagi, bilak suyagidan uzunroq. Tirsak cheti, ko'krak qafasining qovurg'a tugagan past qismi bilan bir gorizont chizig'ida yotadi.




Son suyagi hamisha boldir suyagidan uzundur. Tovon kaft qismi bosh bilan, qo'l kafti esa yuz bilan tengdir.

Ushbu o'lchamlarni bilishlik va to'g'ri o'rganishda o'quvchi ko'pgina hatolardan holi bo'ladi hamda insonni tashqi gavda xarakterini topishda, naturani faqat o'ziga hosligini topishda katta yordam beradi. Insonlar bir xil emas, bironing tashqi gavdasi go'zal, boshqasi beo'xshovroq, birini boshi katta, boshqasini kichikroq, birini yelkasi keng, boshqasini kichikroq ensiz va hokazo. Bo'lajak rassomning vazifasi, ana shunday farqlanishlarni seza bilish va har bir modelni o'ziga hosligini, boshqalarga o'xshamasligini ko'ra bilishi lozim.

Tirik odamning suratini ishlash jarayonida, skelet qismlari o'zini yuz foiz, boshdan oyoq namoyon qila olmaydi. Ko'p

qismlari teri — mu-shaklar orasida ko'rin-may ketadi, shunday bo'lsa ham, skeletni alohida ishlaganimizda shakli, hajmi, tonal xususiyatlarini baribir to'liq ifodalashimiz kerak bo'ladi. Chiz-matasvirni barcha qoi-dalaridan foydalangan holda, oxirgi bosqichda detallarga birma-bir ishlov beramiz, aniq-lashtirib chiqamiz. Aso-siy topshiriqdan tash-qari skeletni turli ho-latlarda, yaxlit, qismlar-ni alohida, qayta-qayta o'rganib ishlashni, o'quvchilarga qo'shim-cha topshiriq sifatida berib borilishi maqsad-ga muvofiq bo'lar edi.



## 2. Odam gavdasining gipsdan yasalgan anatomik qismlari: qo'l, oyoq tasviri

Tasviriy san'at tarixida juda ko'p o'rnak bo'ladigan darajada, qo'llarning tasvirlarini topish mumkin. Italiya buyuk rassomlari qo'l formasini va plastikasini nihoyatda mukammal bilishgan. Buni biz uyg'onish davrining rassomlari Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo asarlarida, Titsianni keyinchalik Rembrant polotnolarida ko'ra olamiz.

Qo'l oyoq qismlarini ishlash, yuqori kurslarda o'quv programmaga kiritilishi, anatomiyadan (lektsiya) ma'ruza va amaliy darslarda, ichki va tashqi plastikani diqqat bilan o'rganish bilan yonma-yon o'tib boriladi.

Qo'l qismi o'ta harakatchan (mexanizm, apparat) bo'lib, juda mukammal mexanik harakatlarni amalga oshirishdan tashqari, insonni emotsional holati, ichki his – tuyog'usini ifodalab beradi. Bunday murakkab mexanizmning formasini o'rganishni, albatta gipsli quyma modeldan boshlashimiz tabiiydir. Gips model harakatlanmaydi, bir xil tonda o'rganishga qulay. Bunda forma umumiy lashgan yaxlit shaklda ko'rinadi.

Postanovkani sun'iy yoritkich orqali yoritishda, qo'l hamda oyoq konstruksiyasi yaxlit formasi, ularning soya-yorug', refleksi yarim soya qismlarini ifodalashimizda asosiy yordamchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Yaxshi, ifodali qo'yilgan postanovka, o'quvchida ishlashga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Ushbu planshetni o'zida, gipsli qo'l holatidek ko'rinishda, qo'l skeletini qisqa muddatli yengil chizgilar bilan bajarilsa, maqsadga osonroq erishamiz.

Qo'lni chizishni boshlayotganda, avvalambor ularning fazodagi holatini to'g'ri aniqlab olishimiz kerak, uning barmoq qismlarini, yengil joylashtirib chiqamiz, uning bukiladigan qismlarini aniq topishda skeletga murojat qilamiz. Gips modelni tonal mutanosibligi, yorug'-soya refleksi, bilaklarigacha diqqat bilan ishlab chiqiladi. Oyoq modelini ishlashda ham ana shu jarayonlar kuzatiladi.

Tana yoniga tushib turgan qo'lning holatini diqqat bilan kuzatsak, qo'l kafti oldinga qaragan bo'lsa, bilak suyagi va tirsak

suyagi bir-biriga parallel joylashadi (a) (supinatsiya holati), kaft orqaga qaragan bo'lsa, bilak suyagi tirsak suyagi ustidan o'tib (x) shaklini hosil qiladi, (b) (pronatsiya holati), (sxemada ko'rsatilgan).


Oyoq qo'l kabi, ba'zi jihatlar ustunliklarga ega emas. Oyoq skeletini, oyoq holatiga o'xshatib chizib olamiz. Kaftning tekislikda yotgan holatini, perspektiva qoidalari asosida joylashtiramiz.

Ushbu ikki pozitsiyalar yetarli darajada bilim bera olmaydi, ammo keyingi murakkab jarayonlar oldida, birinchi jiddiy metodik tayyorgarlik asosiy o'rin egallaydi.


Qo'l va oyoq qismlarini jiddiy o'rganish kerak, buning uchun qisqa muddatli chizgilarni, juda ko'p amalga oshirishda turli insonlar, ayollar, erkaklar, qariyalar, bolalar qo'llarini, oyoq qismini diqqat bilan o'rganish kerak. Ular huddi chehralar kabi har hildir. Bularning barchasi, kompozitsion eskizlar ishlashda, juda qimmatli material bo'lib qoladi.

Barcha kuzatishlar, chizgilar, o'quvchi uchun odatiy holga aylanib qolishi kerak.

Yana naturasiz, hayoliy, turli holatda qo'l, oyoq qismlarini ishlash ham yaxshi natija beradi. San'at asarlaridan ko'chirish usuli ham yaxshi foyda beradi. Buyuk rassomlar ham o'z vaqtida, birgina portret ishlash jarayonida, qo'lning xarakterini topishda, juda katta miqdorda homaki chizgilar ishlaganlar.







Portretda qo‘lning o‘rni kattadir. Buyuk Roden aytgandek, - “ko‘krak, qo‘llar, oyoqlar — ularning barchasi naqadar — cheksizdir, faqat ularni o‘zidagina foydalanib, qanchalar ko‘p narsalar ifodalash mumkin”, deb u yanglishmagan.

### **3. Gudonning gipsdan yasalgan anatomik yarim gvdasi chizmatasviri**

Gipsdan yasalgan modelni boshlashdan oldin, yarimta to‘g‘ri burchakli ( $90^\circ$ ) vatman qog‘oziga mo‘ljallangan planshet tayyorlaymiz, burchaklari to‘g‘ri ( $90^\circ$ ) bo‘lishi shart.

Bu esa, suratning vertikal bo‘yicha yo‘nalishini va vertikal chiziqlarni to‘g‘riligini hamisha kafolatlashdir.

Tonal mutanosiblikni, nozik kumushrang shtrixlar orqali berishda, o‘tkir uchli qilib ochilgan, grafit qora qalami, gips fakturasini his qilishda qulay material hisoblanadi. O‘quvchi qo‘l ostida yana bir ish quroli bo‘lishi kerak, bu (otves) “shovul”dir. Qalinroq qora ipga biror bir og‘irroq yuk osiladi, o‘chirg‘ich bo‘lsa undan ham yaxshi. Agar vertikal yo‘nalishni shovul orqali ko‘rilsa, gorizontal yo‘nalishni esa oddiy (butunroq) qalam orqali bilsa bo‘ladi. Ushbu usul orqali barcha vertikal va gorizontal yo‘nalishda joylangan gips detallarini to‘g‘ri topib belgilash mumkin.

Birinchi navbatdagi vazifa deb, chizma kompozitsiyasini, modelni qog'oz satxiga qanday joylashtirishni maqsad qilib qo'yamiz. Topilgan kompozitsiyani keyinchalik o'zgartirmagan holda, o'sha chegaralar ichida o'zaro barcha mutanosibliklarni (proportsiyasini) topish bilan keyingi jarayonga o'tiladi.

Keyingi jarayonda bosh, ko'krak, qorin, bel qismlarini belgilab chiqamiz. Ularning anatomik jihatlarini hisobga olgan holda, formasini ifodalashga o'tishda, tonal farqlarni diqqat bilan ishlab chiqamiz.


"Gudonning anatomik boshi" davomiy qism bo'lib, tana-ning ustki teri qismi olib tashlangan va muskul va paylar aniq ko'rsatilgan, ba'zi yerlarida suyaklari ham ochiq ko'rinib turibdi. Bu yerda ham gavdaning anatomik plastikasi, haykaltarosh tomonidan juda aniq qilib ko'rsatib berilgan. Chizish jarayonida "odam skeleti" rasmi yoki skelet modeli devorga osib qo'yiladi.

Gavdaga to'g'ridan qaralganda, markaziy vertikal chiziq, yelka o'mrov suyagi tutashgan yeridagi chuqurchasidan, ko'krak suyagi bo'ylab, qorin muskullari oralab, kindik va chanoq suyagi o'rtasidan o'tadi. Markaz chizig'idan ikki tomonlarga, yelka kengligini, ko'krak uchlari oralig'ini o'lchashda (otves) shovuldan ham foydalanamiz.

Bosh hajmining vertikal bo'yicha nisbatini o'lchaganimizda, boshdan tashqari holatda uch marta joylashadi. Gavdaning biror bir tarafidagi detalni belgilaganda, shu zahoti parallel holda ikkinchi tarafini ham belgilaymiz. Barcha yordamchi chiziqlar juda yengil, o'tkir qalam bilan bosmasdan bajariladi. Iloji boricha o'chirgichdan kamroq foydalanganimiz ma'qul. Keyingi bosqich — bu shaxsiy soyalarni ifodalash, barcha soya, yarim soyalarni to'g'ri berish, hajmni (ob'em) ifodalashda ahamiyati katta. Yorug' qismlarga ishlov berishda, turli kuchdagi yarim tuslar, alohida bo'laklar shaklini ishlashda, umumiylikni yo'qotmaslikni unutmazlik kerak. Har bir mayda bo'laklar umumiylikka bo'ysinadi.

Suyak va muskullar joylashishi, mushaklar guruhining xarakterli xususiyatlari, bir necha holatlarida torsni sxemasida lo'nda, sodda chiziqlar bilan ko'rsatib berilgan. Bunda ko'krak, qorin, yelka mushaklar holati aniq ko'rsatilgan. Ba'zida o'quvchilar postanovka ishlash jarayonida, kontur bo'yicha shakl-

ni ko'chirib olgach, so'ng ularning orasini shtrixlar bilan to'ldirib chiqadilar. Bunday qilish yaramaydi, (formani) shaklning chegara hajmini qurish jarayoni tufayli kelib chiqadi. Har qanday tirik modelda qirra, chegaralanish degan narsa bo'lmaydi, chunki odam gavdasi asosan silliq, yumaloqlashgan formalardan iborat. Gipsli geometrik jismlarda qirra, chegara, konturli qismlari bor.



So'nggi bosqichda bajarilgan ishlarni tahrir qilishda, katta forma to'g'ri topildimi, detallar umumiylikka, yaxlitlikka bo'ysinyaptimi deya qarab chiqamiz va xalaqit berayotgan yerlari bo'lsa, shtrixlar yordamida to'g'rilaymiz, ikkinchi planga o'tib qolayotgan qismlarini o'chirgich va yumshoqroq qalam yordamida oldi planga chiqazamiz. Qisqa muddatli chizgilar orqali, yarim gavadani orqadan, yondan, bir necha variantlarini ishlashni o'quvchiga tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar tirik modelni ishlash oldidan, yaxshi natija beradi.



### 3 – BOSQICH V SEMESTR

#### 4. Odam qomatining chizmatasviri

Inson hayotini hamisha kasbimizga xos kuzatuvchanlik tufayli, ish tajribamiz, jarayonida shunga amin bo'lganmizki, inson qomatining nozik harakatlari nihoyatda xilma hildir. Har bir harakatda tanada turli o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Odam boshini kuzatganimizda, yuz mimikasining o'zgarishi, jag' qismi harakati, boshning umumiy formasini o'zgarishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bundan shunday xulosaga kelamizki, bosh suyaklarining o'zaro birikishi natijasida suyaklarda harakatlanish umuman bo'lmaydi.

Qomatni kuzatganimizda, aksincha (formani) shaklning doimiy o'zgaruvchanligini kuzatamiz. Bunday o'zgaruvchanlik xarakterning sababini tushunish uchun odam tanasi tuzilishini analiz qilib ko'ramiz.

– Odam tanasi (tors)dan, ya'ni yarim qomatdan, bo'yin, bosh, bir juft qo'l va bir juft oyoqdan iborat. Bosh va bo'yin qismi tuzilishini oldingi darslarda va amaliy mashqlarda ko'rib chiqqan edik.

Yarim qomat (tors) ikkita yon, oldi va orqa qismdan iborat. Oldi qismi ko'krak va qorin, orqada – bel, yelka qismdan iborat. Qo'l qismlari bog'lanadigan tepa qismi yelka kamari deyiladi, oyoqning bog'lanadigan yeri chanoq suyagi deyiladi. Boshni ushlab turgan bo'yin silindri yelka kamari bilan bog'lanib, oldi qismidagi o'mrov suyagi, bo'yin bilan tors orasidagi chegarasidir. Qo'l bilan oyoqning qanday qismlardan iboratligini oldingi topshiriqlarda o'rgangan edik. Tananing ushbu qismlari skelet harakati, ya'ni muskullarning ish faoliyati tufayli, turlicha holatga o'zgarishi mumkin. Ana shu muskullar va mushaklarning qisqarib yoki cho'zilishi va egilishi – bukilishi skeletga bog'langan – ulangan mushaklar yordamida amalga oshadi.

Skelet suyaklari tashqaridan keladigan ta'sirdan himoya vazifasini bajaradi. Ko'krak qafasi ichki organlarni murakkab sistemasini asrashda qalqon vazifasini o'taydi.

Tana qismlari mutanosibligini o'rganish rassom uchun juda foydalidir. Turli davrlarda inson tanasining go'zalligini turlicha talqin qilishgan, tana o'lchovi (proportsiya)lar kanoni tabiiyki o'zgarib turgan. Antik Greklarning inson qomati o'lchov kanoni eng ommaviy bo'lib, grek madaniyati turli davrlarda o'zgarib borishi natijasida ular ham o'zgarib turgan.



Antik haykallar nusxalarini ishlash jarayonida, proporsiyalarni o'rganishda yana shuni hisobga olishimiz kerakki, hayotda bunday qomatli insonlar juda kam uchraydi.

Model sifatida o'rta yoshlardagi qotmaroqdan kelgan tanasi durust bo'lgan yigitni tanlaymiz. Modelni devordan yarim metrlar chamasi beriga qo'yamiz. Sun'iy yorug'likni yon tarafdand, gavda oldi qismiga ham yorug'lik tushib tursa modeldan devorga soya tushib, gavda qismlarini yanayam aniqlash-tiradi.

Qomat tasvirini qog'oz yuzasida chiroyli joylashtirish uchun yuqoriga va past qismga ikki gorizontal chiziq tortiladi. Shu chegaralar orasida qomatning qismlari joylashtiriladi. Agar belgilangan chegaralar oralig'iga qomatni joylashtira olmasak, unda chizikli rasmni qaytadan boshlashga to'g'ri keladi. Qomatni bir oyoqqa biroz og'gan holda qo'yamiz. Erkak qomati, tananing anatomik jihatlari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Chizayotgan modelimizning og'irlik markazini vertikal chiziq orqali belgilab olamiz. Gorizontal chiziqlar vositasida yelkani, ko'krak qismini, bel tos qismi, tizzalar yo'nalishini yengil chiziq bilan belgilab chiqamiz. Bunda bosh biroz chapga egilgan, yelka va ko'krak qismi aksincha o'ngga og'gan, chunki gavda qaysi oyoqqa tiralsa yelka o'sha yoqqa engashadi. Tos qismi chizig'i chapga og'gan, tizzalardagi chiziq yo'nalishi ham chapga og'adi (suratda birinchi bosqichda aniq ko'rsatilgan). Vertikal chiziq yelka suyagining markazidagi chuqurchadan, o'ng tarafdagi oyoqning tovoni chetidan o'tadi, bu chiziq gavdaning og'irlik markazini ko'rsatib beradi.


Tos suyagi hamisha bo'sh turgan oyoq tomonga engashadi. Simmetrik chiziq vertikal bo'yicha, boshning o'rtasidan,

ko'krak, qorindan kindikkacha va chanoq suyagidan tugab, tanani ikki qismga bo'ladi.



Demak, gavda og'irlik markazini topib, bosh bo'yin, yelka, torsning markaz chiziqlari (os)ni, belgilab bo'lgandan so'ng, gavda qanday tekislikda turibdi degan savolga javob izlaymiz.

Oyoq kafti qanday tekislikda yotibdi, gorizont chizig'iga nisbatan qanday perspektivada joylashyapti. Ish jarayonida gavdaning vertikal va gorizont bo'linishlar proporsiyasiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Bu esa formalarning egilgan, buralgan, rakurs holatini topishda ahamiyati kattadir. Ushbu ish jarayoni katta e'tiborni









talab qiladi. Inson qomatini tasvirlashda, mukammal formalar labirintida adashib yurmaslik uchun, anatomiyani juda puxta o'rganish kerak. Aks holda insonning aniq va ishonarli obrazini yaratib berolmaymiz. Tabiatni ilmiy idrok qilish bilangina rassom san'atning yuqori cho'qqilariga chiqishi mumkin.

Inson biron-bir xarakterni amalga oshirsa, aytaylik qo'lini ko'tarsa, shu xaxoti butun tana xarakterga keladi, hamma mushaklar xolati o'zgaradi, yelka kamari qismi bir yo'nalishda xarakterlansa, toshchanoq qismi boshqa qarama-qarshi tarafga o'zgaradi, tananing muvozanatini saqlash uchun bu qonuniyatdir.

Ba'zi mushaklar cho'zilsa, boshqalari qisqaradi yoki ba'zilari taranglashsa, boshqasi bo'shashadi. Anatomiyani yaxshi o'rgangan rassom chizish jarayonida qaysi detallarga (aktsent) urg'u bersa, tana xarakterini, organik bog'lanishini topa olishini yaxshi biladi. Yorug' soya qismlarga ishlov berishda o'zimizga savol beraylik, yorug' qismlar qaysi? — bular eng yorg'dan yarim soyagacha bo'lgan oraliq eng yorug' — bu (**blik**) oqdog'. Oq dog'dan keyingi qismi — yorug'. Yorug'dan keyingi qism yarim yorug'.

Soya qismlari: - yarim soya; soya, refleks, shaxsiy soya, tushuvchi soya. Ushbu qoidalarni to'g'ri o'zlashtirib olsak, har qanday jism-





ga tus berishda, uning formasini to'g'ri aniqlashimizda juda qo'l keladi.


“Sen ishlayotgan yorug‘ va soya qismlar chegaralarsiz umumlashib ketishi kerak, go‘yo – tuxum kabi” – deb ta'kidlagan edi buyuk Leonardo.

Qomat qismlarini alohida ko‘rib chiqishda, umumiylikni saqlashni, kichik formalarni katta formalarga bo‘ysinishini unutmashimiz kerak.

Boshning egilgan holati orqali, bo‘yin qismidagi mushaklarini holatini, muskullarning yelka qismi bilan qanday bog‘lanishini kuzatamiz. Ko‘krakning katta muskuli, yelkaning deltasimon muskuli, qo‘lning ikki boshli muskuli, bularning yelka qismi suyaklari bilan bog‘lanishi, ko‘krak muskullari, ko‘krak qafasini qoplab turishi, muskullarning bir-biriga birikishini diqqat bilan kuzatamiz.

Qo‘lning yelka va bilak suyagi mushaklardan iboratligini (anatomik, atlasdan foydalaning) bilakni kaft barmoq qismlari bilan bog‘lanishi, ayniqsa barmoqlarni harakatga keltiruvchi paylarning faoliyatini o‘rganishimiz kerak. Bularning barchasi gavdaning tors qismida joylashgan.





Tors pastki qismidan tortib sonning yaxlit muskullari son suyagi bo'ylab, tizzaga yo'nalishini diqqat bilan kuzatib ishlab chiqamiz. Tizza boldir suyagi, kaft tovon suyaklari oralig'idagi bog'liqlik boldir muskullarining barchasi qomat plastikasini, xarakterini ochishda ahamiyati katta.

Naturani har tarafdin aylanib kuzatish juda muhim, shundagina tananing haqiqiy formasini tushunishimiz onsonlashadi. So'nggi bosqichlarda, ba'zi detallarni alohida ko'rib chiqamiz. Masalan: ko'z, qosh, burun, lab, oyoq-qo'l barmoqlarini konkretlashtiramiz. Ammo kichik va mayda detallar, baribir gavdaning umumiy formasiga xizmat qiladi va bo'ysunadi.

Tasvirda umumiylikni yo'qotmaslik kerak. Katta ish jarayoni bilan bir vaqtda, kichik amallarni ham bajarish kerak, ya'ni: qisqa muddatli chizgilar, anatomik atlas qo'llanmalaridan ko'chirmalar, tananing alohida qismlaridan chizgilar va hokazo. Inson tashqi va ichki tuzilishi go'yo bir murakkab mexanizm, uni diqqat bilan o'rganishimiz lozim. Uyg'onish davri rassomlari hatto, inson qon aylanish sistemasining ish faoliyatini



ham diqqat bilan o'rganishgan.

Aytmoqchimizki, insonni o'rganishda nafaqat ijodiy yondashish, balki ilmiy nuqtai nazardan o'rganishimiz zarurdir.



### 3 – BOSQICH VI SEMESTR

#### 1. Odam qomatining chizmatasviri

Odam tanasining umumiy ko‘rinishi tashqi formalar orqali aniqlanadi, ular erkak va ayolda tubdan farq qiladi.

Erkak bilan ayol tanasi o‘rtasidagi farqni gavda tuzilishi formasi va proportsiyasini anatomik arxitektonik qurilmasi belgilab beradi.

Ayol skeletining barcha qismlari kichik hajmda, ya’ni nozikroq tuzilishda bo‘ladi. Tashqi formalari tekisroq, silliqroq, mushaklari me’yoridan pastroq rivojlanganini ko‘ramiz.

Bu kabi formalarni yanayam chuqurroq o‘rganish maqsadida navbatdagi postanovkamizni “ayol qomatining chizmatasviri”, deb tuzatish kiritamiz. Erkak qomatini tasvirini qaysi uslub bo‘yicha boshlagan bo‘lsak, ushbu postanovkada ham shu uslubni qo‘llaymiz.

Yuqorida aytib o‘tilgan farqlanishlarni hisobga olgan holda chizishni boshlaymiz.

Ayol qomatining o‘ziga hosligi, xarakterli jihati, tana qismlarida namoyon bo‘ladi;

yelka kamari suyagi maydaroq va ingichka;

ko‘krak tanasi cho‘ziqroq, tos qismi keng va kalta; son qismi katta.

Ayol bosh suyagi bolalar bosh suyagini eslatadi, unga katta bo‘lmagan hajmda, yupqa nozik, bosh chanog‘i yumaloq, yuz qismlari kichikroq hajmda, ko‘z chuqurchasi katta, jag‘ suyagi nozik.


Teri qismlarini kuzatadigan bo‘lsak, teri ostidagi yog‘ hujayralari miqdori (%) bo‘yicha erkak kishinikidan 10% ko‘proq, shunga bo‘lsa kerak mushaklarning bo‘rtgan shaklini tekislaydi, silliqlaydi desa ham bo‘ladi. Ba’zi hollarda ayol tanasiga hos bo‘lgan ortiqcha yog‘ yig‘ishi holatini kuzatamiz. Bular tos – bel qismlari atrofida, qorinda ayniqsa seziladi.

Terining tag qatlami yog' to'qimalaridan iborat bo'lib, tananing qayerida bo'lmasin teri bilan bir butun qatlamni hosil qiladi.

Qomat anatomiyasini o'rganish chog'ida, mushaklar formasining harakatini o'rganishda, nafaqat tinch holatini, balki ularning harakatdagi holatini ham diqqat bilan kuzatish kerak bo'ladi.

O'qituvchi naturani bir – necha harakatlar qildirish orqali, - mushaklarning tortilish va bo'shashishi holatlarini amaliy darsda o'quvchilarga ko'rsatib tushuntirib o'tadi. Holat o'zgarish chog'ida, tana qismlaridagi mushaklar o'zgarishi, qomatning umumiy formasiga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi.

Qomatni chizish chog'ida ancha qiyinchiliklarga duch kelamiz, chunki yog' qatlami mushaklar holatini, skelet konstruksiyasini ko'zdan yashirishga o'z xissasini qo'shadi. Ammo biz baribir qomatni tasvirlashda (anatomiyasini), muskullarni suyaklarga qanday birikkanligini diqqat bilan kuzatib o'rganishimiz kerak bo'ladi. Ish jarayoni bundan to'g'ri foydalanishni talab etadi. Mushaklari aniq rivojlangan ayollar asosan jismoniy ish bilan shug'ullanadiganlar, gimnastlar sportchi-





lardan iborat bo'lib, mashqlar tufayli muskullarning rivojlanishi tufayli skeletda ham ba'zi o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bular ko'krak qafasining keng baqquvat bo'lishi, yelkaning kengligi va gavda mushaklarining yaxshi rivojlanishidir.

Yog' to'qimalari rivojlanishi ayolning yoshiga bog'liq, vaqt o'tgan sari ular gavda shaklini sezilarli darajada o'zgartirib yuboradi, erkaklarda gavda shakli muskullari rivojlanishi tufayli ancha saqlanib turadi.

Teri ostidagi yog' to'qimalari, ayol tashqi shakliga ta'siri katta, u shaklning yumaloqligini, gavda nafosatini va garmonik go'zalligini namoyon qilishda ham o'zining hissasini qo'shmay qolmaydi.

Modelni ishlash jarayonida, asosan ayol gavdasi bilan erkak gavdasi orasidagi proportsional farqlanishni aniqlay olsak, qolgan jarayonni avvalgi bo'limlardagi topshiriqlarda o'rganib chiqqanmiz.


Model qurilmasi ishlanib, tananing asosiy proportsiyasi xarakteri topilgach, plastik shaklini aniqlashga o'tiladi. Tana katta shaklini, alohida mushaklari, tanani bo'rtgan qismlari, suyaklarning anatomik nuqtalarini, paylarni va mushak qismlarini topishga diqqatni qaratamiz.

Modelning xarakterli jixatlarini ochib beradigan qismlari-gagina, anatomik sinchkovlikni oshirish talab etiladi. Gavda umumiyligini yaratish, anatomik bilimga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Gavdaning bosh qismlari, qo'l barmiq qismlari esa oldingi topshiriqlarda qanday ishlangan bo'lsa, shunday usulda amalga oshiriladi.

Chizmaning sifatini kafalotlovchi omil sifatida, professional darajada bajarilgan xomaki chizgilar ahamiyati katta. Zero, har qanday topshiriqdan oldin bajarilishi shart bo'lgan jarayondir. "Xomaki tez chizgi" o'z oti bilan tez chiziladi, aniq to'liq, bir zumda, chizilayotgan ob'ektni, aniq tez xarakterlar bilan asosiy xolati, xarakterli chiziqlarni ifodalash demakdir.

U kichik hajmda bajariladi, naturaning holatini tezkor ravishda qog'ozga muhrlanish jarayonidir. Mohir rassom bajargan yengil, tugatilmagan chizgi, san'at asaridan ko'ra ko'proq hayotiyroq ahamiyatga ega bo'lgan darajada ekanligi kuzatilgan.



## 2. Tez chizgilarni (qoramalarni) tasvirlash imkoniyatlari va xususiyatlari.

Ijodning turli jabxalarida, rassom yo'qki tez chizgidan foydalanmagan. San'at ustalarining ba'zilarida u katta ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki ijodning eng ahamiyatli qismini egallaganiga amin bo'lamiz.

Qisqa muddatli chizgi — bu siqiq, tasvirni butunlay tasvirlab berishga ojizligi bor. Ammo tarixda shunday chala tez chizgilar bo'lganki, uzoq muddatli ishlardan ko'ra afzalroqdir.

Yaxshi xomaki tez-chizgi bu asl nusxa emas, ko'zga ko'ringani daliliy ashyo emas, balki obrazning lokal qiyofasini ifodalovchi vosita.

Tajribali rassom, bunday vazifani bajarishda, mayda-chuyda detallarga ahamiyat bermasligi, ikkilamchi narsalarga chalg'imasdan, eng muhimiga, ya'ni ifodalanayotgan voqelikning mazmun mohiyatini, uning obrazlikka xizmat qiladigan omillariga urg'u berib ifodalashga jalb qilishi kerak.

Ko'pincha san'at ustalari ishlagan tez-chizgilarni kuzatganimizda, tasvirning karikaturalik darajasigacha ifodalangan holatlarning guvoxi bo'lamiz.



Xolbuki bunday usul — o‘ziga yarasha merganlik darajasida nishonga tekkizish demakdir.

Bu kabi o‘tkir-ravon, aniqlik bilan ifodalangan tasvir esa uzoq muddat ishlangan, har bir detallarni ikir-chikirigacha ifodalangan chizmaga qaraganda modelning xaqqoniy holatini ochib beradi.

Asarni kuzatayotgan har bir tomashabinda tasvirlanayotgan inson xaqida yorqin va aniq tasavvur hosil qilish kerak, bunda tana qismlari proportsiyasi u yoki bu insonga taalluqliligi, gavda xarakati, qo‘l yuzning sezilarli darajadagi xususiyatlari, insonni boshqalarga o‘xshamas jihatlari, uni shu kabi jihatlari bilangina oson tanib olishi faqat ushbu sub’ektga tegishli alomatlarini chizmada ilg‘ab olib, mohirona taxlil qilishni yaqqol anglab olishi kerak.

Agar rassom tasvirlash manbalaridan kam foydalanib, haqqoniy va ishonarli badiiy echimni topishga erishar ekan, bu uning ustaligidan nishona, tez chizgining spetsifikasini tushungani, uni bilib ishlata olishidan dalolat beradi.

Anamalist rassomlarni ishlarini kuzatar ekanmiz, xayvonot dunyosining vakillarini tasvirlashda, ularning xarakterli xususiyatlarini o‘tkir ifodali qilib ko‘rsatib berganliklarini quyidagi suratlarda ko‘ramiz.



Ushbu suratlarining birida nozik, bir oz qo‘rqoqroq oxu bo‘lsa, ikkinchisida esa xarakatdagi ayiqning tez chizgi surati. Ularning tashqi qiyofasi, xarakati o‘zini tutishida qanchalik farq borligiga



e'tibor bering. Og'ir vazminlik bilan qadam tashlayotgan ayiq obrazi, qanchalik aniq ifodalangan. Turishlari tantanavor sergak oxu xarakatini yon tarafga qaratib go'yo xavf-xatar sezilsa, ingichka tayoq kabi nozik oyoqlari bilan tumtaraqay bo'lib qo-chadigandek tuyiladi. Ushbu tez chizgi suratlarini kuzatayotgan tomashabinda, mutlaqo turlicha xissiyot paydo bo'ladi. Ularni na faqat tanib bilish, balki har birining plastik va mazmuniy xarakteristikasini to'la-to'kis anglab oladi. Ijodiy tajribalarni o'tash, qidirish, sinab ko'rish barchasiga tez chizgi ishlash jarayoni katta imkoniyat yaratadi. Mavzularning tez-tez almash-tirilishi, ashyolar va chizish texnikalari o'zgartirilishi, bajariladigan topshiriqlar mo'lligi, qiziquvchanlik muhitini yaratish barchasi oboriladigan ishni muvaffaqiyatiga ko'maklashadi.

Kompozitsiya ishlashda, tez chizgining ahamiyati katta. Naturadan ishlangan xomaki surat xissiyotning ishlashini, badiiy asotskatsiyasi rassomda paydo bo'lishi va kompozitsiyaga chiz-gilar ishlashda o'z aksini topadi.

Eskiz – tez chizgidan, san'at asarini yaratishning qiyin zax-matli yo'li boshlanadi. Ko'pincha boshlang'ich g'oyalari paydo bo'ladi, o'ylab qo'yilgan syujetni ro'yobga chiqarish printsiplari paydo bo'ladi. Tez chizgilar bajarishda katta ustaxonalar, murakkab moslama kabilarning bo'lishi shart emas. Tez chiz-gilarni har qanday yerda amalga oshirish mumkin.

### **3. Tez chizgilarda foydalanadigan tasvirlash usullari.**

Tez chizgilarda ham, xuddi uzoq muddatli chizgilardagi ka-bi grafik usullar va ashyolar mutlaqo bir xildir (chiziq, shtrix, dog' ushbu elementlarning kombinatsiyasi). Lekin tez chizgi-larning chaqqon bajarilishi, orqasidan lakallik o'tkir ifodalilik, xayotiylik taassurotini, ishni yengil ifodalanishi, ananaviy uslubni o'ziga xosligini ta'minlaydi. Predmetlar shakl xarakterini ifodalovchi chiziq, shtrix tonal dog'lar, tez chizgilarda uzoq muddatli chizgilarga qaraganda, odatda yanayam aktiv, uyg'un-roq, urg'uliy darajasi yuqoriroq bo'ladi.

Tez chizgilarda ko'pincha "chizikli ifoda" printsiipi xukm suradi, bir necha chiziqqlar yordamida konturli chegara yo'sinda tortib boriladigan chiziq, asosiy shaklini elementlarni, qog'ozni

boshqa qismlaridan jismni ajratishdan chiziqlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tez chizgilar o‘ta lokal va o‘ta ifodalidir.

“Shakl va chizgilar qanchalik oddiy ekan, go‘zallik va kuch shunchalik ko‘pdir”, - deb ta‘kidlagan edi chizmasatvirning buyuk ustasi Engr.

Turli qalinlikdagi va uzunlikdagi shtrixlar turli yo‘nalishda tortilishi, formani yasashda yordam beradi, alohida va yaxlit detallarni izoxlashda, ob‘ekt turli jabxalarining fazoviy xolatini ifodalashda shtrixlarning bir nechta usullari bor. Gohida ular parallel qatorni, ular yordamida alohida detallarni ham butun ob‘ekt xarakterini ifodalaydi.



Ko‘chalarda, umumiy joylarda, safarga chiqqanda tez chizgilarning kichikroq xajmda ishlangani maqul. Tez chizgilarga uyda yoki ustaxonada ko‘pincha alohida qog‘ozlar ishlatiladi, ularning sifati katta-kichikligiga qarab turlicha bo‘ladi. Goxida esa albomlarga ham chiziladi.

Shu maqsadda “cho‘ntak daftari, kichik bloknot, kundalik” daftarlarga taassurotlarni muxrlab qo‘yish juda qulay.

Ataylab (ko‘chaga, xayvonot bog‘iga), yoki kompozitsiyaga material yig‘ish uchun chiqilganda, biroz kattaroq papka yoki

albom olganingiz maqul. Kichik eskizlar uchun turli xildagi qog'ozlar: tuslangan, rangli, turli qalinlikdagi barchasi o'ziga yarasha ashyoga mos va xos bo'lgani yaxshi. Devor qog'ozning orqa tarafiga yomshoq ashyoda ishlasa yaxshi bo'ladi. Surat ko'rinishini boyitish maqsadida turli usullardan foydalaniladi. Masalan: turli tusdagi qog'ozlar tagiga g'adur-budur yuzali metall plastinalar qo'yiladi. (kataksimon, nuqtasimon) qog'oz satxiga ishlov berilganda, o'ziga xos effektli surat xosil bo'ladi.

Tush, pero bilan ishlashda silliq qattiq qog'oz ishlatiladi, pero yaxshi sirg'aladi, tushi tarqalib yoyilib ketmaydi. Tez chizgilarga ko'pincha ko'mir qalam, sangina, pastel, sous, qora siyox, tush, akvarel, cho'tka, cho'ptayoqcha, pero, avtoruchka, oddiy ruchka, flomasterlar, chizma bo'rlar, ba'zi kosmetik qalamlar, retush qalam, gel ruchkalar va hokazolardan foydalaniladi. Eng ko'p ishlatiladigan oddiy qora qalam 2m-6m yo'g'on sterjenli (avtokarandash) katta qismlarni tushlashda ishlatiladi.

Albatta, tez surkaladigan ashyolar, ustaxonadan tashqarida ishlatish qulay emas, shuning uchun ularni shu xaxoti maxsus fiksaj bilan qotirish zarur, ana shunda ish uzoqroq saqlanadi.

#### **4. Tez chiziladigan mashqlar**



Ishonchli malaka va tajribaga ega bo'lish uchun to'xtovsiz mashqlar tufayli erishiladi, bu esa tez chizgining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Aniq va maxsus qo'llaniladigan mashqlar tufayli sifatga erishish osonlashadi.

Tez va o'ta tez chizgilar 1-2 daqiqada bajariladi. Ishni bunday minimal darajada bajarishda, chizayotganlarda tasvir maqsadini na faqat tez hal qilish, balki lokal ifodalashni yuksaklikka olib chiqish lozim.

Ayniqsa xarakatlanib borayotgan modelni tasvirlashda rassom diqqat bilan har bir xarakatni kuzatishi, ko'proq eslab qolish, xayolan ishlash mahorati ishga tushadi. Tez va keskin hal qilish talab etiladi. Bunda natura unga so'rovnoma qo'llanmasi vazifasini bajaradi, ammo juda qisqa vaqtga. Tez chizgiga passiv ravishda naturani ko'chirib olish xatodir, aksincha modelni ifodalashda, uni eng muxim xususiyatlariga, uning xarakatini aniq ifodalashga intilmoq joizdir.



Qisqa muddatli tez chizgilar tematikasi, asta-sekinlik bilan murakkablashtirib boriladi. Boshlanishida oddiy formadagi predmetlarni ifodalashga diqqatni qaratish lozim. Tsilindr yoki konussimon shaklga ega jismlarni ishlashda (masalan, chelak, krujka, ko‘za) uning yuqori og‘iz qismi, perspektiv qisqarish qoidalariga e‘tibor berish lozim bo‘ladi, chunki ko‘pincha o‘quvchi ellips va (oval) doira qismlarini ishlashda, ancha xatoga yo‘l qo‘yadilar.



To‘g‘ri burchakli shaklga ega bo‘lgan jismlar (shkaf, stol, taburetka, stul, televizor va hakozi), diqqat bilan joylashtirishda, tekislik yuzasida predmetning perspektiv joylashishiga e‘tibor berish, jismlarning o‘zaro farqini ajratish, qisqa muddatli chizgilarda ham to‘g‘ri va tez yordamchi chiziqlar yordamida bajariladigan suratlar, asosan uzoqroq muddatli chizgilarda amalga oshiriladi, bunda esa, tez xarakatli, jonli, tasvirlash topshirig‘ini aniq bajarish asosiy vazifa bo‘lib xizmat qiladi.

Odamlarning xarakatdagi holatini uyda, ustaxonada, ko‘chada, stadionda, umumiy joylarda, ishlab

chiqarishda, shahar tashqarisida tasvirlash mumkin. Boshlang'ich jarayonda insonning kam xarakterli xolati, ya'ni (xat yozib o'tirgani yoki tikish va to'qish, oshxonada biror yumush bilan shug'ullanayotgani, ko'chada, bozorda maxsulot sotib olayotgani va hakoza). Bu kabi xolatlarni ifodalash uchun katta tajriba, kuzatuvchanlik darajasi yuqori, ko'rib eslab qolish qobiliyati kuchli, yaxlit butun ko'ra olishi katta rol o'ynaydi.

Kuzatuvchanlikning ikki turi bo'ladi: umumiy va qisman. Rassom ob'ektni va predmetlar guruxini avvalom bor yaxlit umumiy jixatlarni, shu bilan birga qismlarni, kichik detallarni xarakterlik xususiyatlarini belgilab bera olishi kerak.

Ko'chada ketib borayapmiz, xech narsaga diqqatimizni jalb qilmaymiz, ko'z o'ngimizdan, bir xilda yurib borayotgan odamlar oqimi tez-tez o'tib boraveradi. Ammo diqqat bilan kuzatib borayotganimizda, qiziq xodisalarni, yorqin taassurotlarga sabab bo'luvchi ko'rinishni uchratishni intiq bo'lib kutamiz. E'tiborga loyiq voqealar xayojonlanib borayotgan kuzatuvchini, albatta taqdirlashiga amin bo'lamiz. Kuzatuvchan rassom kundalik xayotimizdan ko'p qiziq, o'ziga jalb qiluvchi xodisalarni topa oladi. Ular o'z chizgilarida yorqin ishonarli ta'ssurotlarni bera oladilar.

Tez chizgida tajribaga ega rassom, ish jarayonida naturaga tez-tez qarab chizishga uncha muxtojlik sezmaydi, unda ko'rib eslab qolish qobiliyati kuchli, kuzatayotgan ob'ektning eng muhimini asosini tez ilg'ab oladi. Qisqa vaqt ichida, u ko'p narsalarni ko'rish va eslab qolishni, kam mashq qilgan odamga nisbatan aniqroq bajaradi.


Manzarali tez chizmani ishlashda, o'ziga xos metodik printsiplar asosida amalga oshiriladi, tasvirlash kompozitsiyasi topiladi, katta qismlarni (er-osmonni) belgilab olinadi, gorizont chizig'ini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega, chunki manzaraning qanday nuqtadan kuzatilayotganini belgilashga yordam beradi, gorizont chizig'i xamisha ko'rayotgan odamni ko'rish darajasi bilan bir chiziqda joylashadi. Asta sekin daraxtlar, daryolar, barcha detallar o'z joyiga joylashtiriladi. Oldingi plandagi detallar aniqroq qilib ishlanadi.

Manzaralar turlicha bo'ladi (arxitektura) me'moriy obidalar, mashinalar, tramvay, avtobuslar ham ishtirok etishi ham

mumkin. Bu esa rassomning qanday maqsadda, qanday kompozitsion maqsad qo'yilganiga bog'liq.

### 5. Hayvonlar va qushlarning tez chizgilari.

Turli tuman xayvonot dunyosi – atrofimizni o'rab turgan tabiatning muhim bir qismidir. Rassomlarning ijodiy faoliyatida (animalistik) xayvonlar xayoti bilan bog'liq tema alohida va muhim o'rin egallaydi.



### 6. Inson boshining tez chizgisi.

Ko'pgina san'at asarlarida xayvonot va qushlar dunyosi ishtirokida ishlangan ishlar bor. Xayvonlar va qushlarni ishlashda,



uning anatomik jihatlarini jiddiy o'rganish lozim. Bunday bilimlarni o'rganish negizi, naturadan ishlashga borib taqaladi. Hayvonot bog'ida, ko'chada, qishloqlarda, o'rmonlarda buni amalga oshirish mumkin. Yana, anatomik tablitsalar, zoologiya xaqidagi kitoblardan ham foydalaniladi. Xayvonotlar ishtirokidagi san'at durdonalaridan namunalar diqqat bilan o'rganiladi.

Animalistik temada topshiriqlar bajarish, keyinchalik grafik rassom uchun, kitoblar bezashda foydasi juda katta.

Ularning plastik go'zalligini ifodalash uchun, ularning harakatdagi xolatlarini, ko'plab tez chizgilar ishlash tufayli erishiladi. Qushlar ham o'ziga yarasha alohida bir dunyo, ularni ham alohida o'rganish lozim.

Eng qiziq va eng murakkab ob'ekt, bu inson qiyofasidir. Inson qiyofasi tasviriy san'atda juda ko'plab ishlangan va ishlanib kelinmoqda.

Inson qiyofasini tasvirlashda, bir yo'la asosiy formasi hamda individual xususiyatlari, xarakteri va plastik xolatini ifodalash kerak bo'ladi.

Ataylab o'tkazib chizilgan modeldan ko'ra, chetdan kuzatib o'tirgan rassom, o'sha inson xarakterini o'xshashligini topish uchun bir necha vaqt kuzatib suhbatini eshitib o'rganishi, ushbu jarayonda fursatdan foydalanib tez portretni qulay xolatini qog'ozga muhrlab qo'yish, uzoq muddatli chizgilarga qaraganda, originalroq chiqadi. Bunday qisqa chizgilar tarixda: buyuk arboblardan, akterlardan, ko'pchilik biladigan insonlarning suratlari namunalarini ko'p ko'rganmiz. Ular san'at asarlari qatorida saqlanib kelinmoqdaki, o'zining xayotiyligi, oddiyliги, o'xshashlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Qisqa chizgida portretning barcha jarayonlari boshidan oxirigacha bosqichma-bosqich chizib chiqilmaydi, bunga imkon ham etmaydi, shuning uchun barcha etaplar xayolda hisobga olinib, qog'ozga portretning oxirgi xolati muhrlanadi. Bu esa oson bo'lmaydi, chunki rassomdan katta mahorat va uzoq muddatli mashqni talab qiladi. Ana shunga intilib ko'p ishlashimiz lozim bo'ladi. Har bir ustaning o'ziga xos uslubi, chizmaning o'z texnik yo'llari mavjud bo'lib, ijodiy intilishlari, dunyoni o'ziga xos his qilishi, jo'shqinligi bilan hamohangdir. Biroq modelni tez chizgida ravon va jonli ifodalash ko'pchilik rassomlarga

xosdir. Ushbu suratda Rembrant erkak kishining boshi tez-chizgisida, boshning yengil, keng qamrovli soya qismlarini quyib ishlab chiqadi, ba'zi yerlarini shtrixlar chiziqlar vositasida xal qiladi. Bu yerda nafaqat texnik jixatlari mohirona bajarilgan, balki mazmunan mohiyati yaxshi ochib berilgan. Rembrantning grafikadagi ijodi, tez chizgi ishlashda obrazli echim topishda va texnik usullarni ifodalashda, boy manba bo'lib xizmat qiladi. O'ziga yarasha ta'sirchan grafik portretida P.Pikasso, shtrixlarni dinamikasini qora quyma dog'larning o'yini bilan uyg'unlash-tirib yuboradi. Tez chizgiga yanayam jon kirgizib, larzaga soladi



Rembrant. Erkak boshi. Bistr pero.

P.Pikasso Ayol portreti.  
Tush pero ostida.

N.Jukov. Taassurot Pero siyox.

Rassom N.Jukovning, taassurot ostida hayol surayotgan bola asarida, muallif bolaning diqqat bilan nimalarnidir o'ylayotgan xolatini yengil chizgilar bilan moxirona ochib bera olgan.

## 7. Inson qomatini tasvirlash

Ushbu tematikaning o'quv chizmada o'rni katta, tez-chizgini mukammal egallagan har qanday rassomda xam, inson qomatini ifodalash darrov va oson bo'lmaydi. Boshlanishida qomatning tuzilishini mukammal o'rganish talab etiladi, bunga o'ziga yarasha ancha vaqt kerak bo'ladi. Buni amalga oshirishda, o'tadigan darslar jarayonida bosqichma-bosqich, o'rganib boriladi. Uzoq muddatli naturadan ishlanadigan chizgilar bilan



birga, tezchizgilar yonma-yon parallel olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Hatto juda qisqa fursatda bajariladigan tez chizgilarni amalga oshirishda, odam qomatini to'g'ri haqqoniy ifodalashga intilish kerak. Uning skeleti, harakat xolatidagi mushaklarning xarakatini aniq ko'rsatib berishi kerak, hatto kiyim ostidagi tana xolatini his qila olishimiz lozim. Dars jarayonida qo'yilajak modelni, plpnshetga boshlashdan oldin, naturani turli tarafdin, turli xolatdan, ma'lum vaqt berilib o'quvchilarga tezchizgilar ishlashni tashkil qilish lozim. Lokal ifodalanadigan tez chizgida rassom chiziqlar qalinligini, shtrixlar aktivlik darajasini o'ynatib galma-galdan foydalanishni mahorat bilan ifodalashi lozim.

Tez va aniqlik bilan bajariladigan suratda, asosan tananing umumiy jixatlari, uning xarakat xolati belgilab chiqiladi. Yorug'-soya qismlari orqali tana formasi yanayam ko'rsatib beriladi.



A. Tirs. Yalang'och ayol modeli.  
Q. Ko'mir.

Tez chizgi barcha protsessini rassom qisqa muddatda, gohida laxzada bajaradi. Qog'ozga suratni to'g'ridan to'g'ri gavnani hech qanday belgilab o'lchab olmasdan, asosiy qismlarini, xarakat holatini, modelni proporsiyasini, bir necha shtrixlar orqali berishga ham to'g'ri keladi.

Sportchilar, o'ynayotgan bolalar, turli kasbdagi insonlar ish jarayonidagi holatlari ham, tez chizgilarga qiziq mavzu bo'lib, harakat holatini tez va aniq ko'rsatishni rassomdan talab qiladi

O'quvchilar ijodiy faoliyatini boshqarishda ularga aniq ko'rsatma berishda, shaxsiy o'rnak, kashf qilish ishtiyoqini uyg'otish, yaxshi natija beradi. Ammo o'quvchilar o'z faoliyatini butunlay erkin

boshqarishlari, yagona bir maqsadga yo'naltirilgan topshiriqni, izdan chiqarib yuborishlariga yo'l qo'ymaslik, ularni to'g'ri tasvirlash metodikasi bo'yicha ish olib borishlarini ta'minlash zarur.





O'quvchilarning bemaqsad qalam tebratishlari, bir narsa chiqib qolar, degan o'y bilan ko'r-ko'rona ishlashlariga yo'l qo'ymaslik, suratning asl mohiyati, kompozitsiyasi, taxminiy tarxni tasavvur qilishga o'rgatish, chizilayotgan predmetni baxolay bilish, kattadan kichik qismga o'tish, kabi qonuniyatlarga rioya qilishga o'rgatish lozimdir.

O'quvchilar tomonidan bajarilgan tezchizgilar, qoramalar, etyudlarni kichik ko'rgazmalar o'tkazib muxokama qilishlar yaxshi natija beradi.

Ular zo'r ishtiyoq bilan bir-birlarining ishlarini ko'rib, taqqoslab o'zlariga baho beradilar. Iloji boricha o'quvchilarga, o'z ishlarini muhokama qilishlariga, hamda o'rtoqlarining tez chizgilarini ham tahlil qilishlariga imkon berish foydadan xoli emas.

Tez chizgilarni yaratish jarayonida o'quvchi o'z ishini buzib qo'yishdan qo'rqmaydi, faol ravishda ishonch bilan xarakat qiladilar. Tinmay mashq qilish natijasida o'quvchi tasvirni erkin, qiziqarli, yorqinroq tasvirlashga xarakat qiladi va yaxshi natijalarga erishadi.

Bunda o'qituvchining reproduktsiyalar va san'at asarlaridan namunalar ko'rsatishi, ko'rgazma va muzeylardagi asarlarning asl nusxalarini ko'rishni uyushtirishi, targ'ibot qilishi katta rol o'ynaydi.

Bo'lajak rassomlarni katta professional rassomlar ustaxonalariga o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tashriflari, san'at asarlarini qanday yaratilishini o'z ko'zlari bilan ko'rishlari, o'chmas tassurotlar uyg'otib, o'quvchi ongiga mangu muhrlanib qolishiga hech qanday shubxa yo'q. Rassom bilan uchrashuvni o'qituvchi oldindan tashkil qilishi, rassomni o'quvchi bilan bo'ladigan muloqotini, ijodiy muhitni yaratishda ijodning mashaqqatlari va muvaffaqiyatlari natijasini, o'z ko'zlari bilan ko'rib, o'z quloqlari bilan eshitishlari, bo'lajak rassomlarning shakllanishida ahamiyati katta. San'at ustalarining bilim yurt-

lariga taklif qilishni tez-tez tashkil qilish kerak. Bu esa o'quvchilarni san'atga bo'lgan qiziqishini yanayam uyg'otadi va ijodini rivojiga rivoj qo'shadi.

Ko'rib eslab qolish va yana qog'ozga eslab qolgan narsani tasvirlash pedagog rassom uchun xamda uning shogirdi ya'ni o'quvchisi uchun muxim ahamiyatga ega.

Ba'zan safarlar chog'ida, qiziqarli va kompozitsiya uchun kerak bo'lgan ko'rinishlarning guvohi bo'lganimizda, qisqa vaqt ichida kerak elementlarni qog'ozga muhrlab qo'yishga intilamiz, qisqa vaqtda barcha kerak bo'lgan jihatlarni yoritma olmaymiz, bunda bizga tasavvur qilib xayolan ishlash uslubi qo'l keladi. Bunga osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Naturani bir necha bor, bir nuqtadan diqqat bilan ishlaymiz, so'ng modelga qaramagan xolda, shu nuqtadan xayolan xolatini qog'ozda qayta ishlashga harakat qilamiz. So'ng model bilan taqqoslab ko'ramiz va kamchiliklarni darhol anglashga xarakat qilamiz.

Xayolan, qaramay tasvirlashni oddiy predmetlarni ishlashdan boshlab va asta sekinlik bilan murakkablashtirib boriladi. Barcha diqqatni bir joyga yig'ib, ob'ektni qiyofasini eslab, uning xarakterli xususiyatlarini (tashqi qiyofa proportsiyasi)ni tasavvurda saqlagan holdagina, obrazni grafik ifodalashni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

O'quvchilar bilan tez chizgilar ustida ishlashda, tezda kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Ishda chaqqonlik, aniqlik, tasvirni ishonarli ifoda etish talab qilinadi bunga esa darrov erishib bo'lmaydi. Tez chizgilarni ishlashga o'rgatishda, o'qituvchi o'quvchilarni barcha chizish qirralari (materiallari)ga ega bo'lishlariga erishishi lozim. O'quvchilarga bu haqda, o'z vaqtida qanday ashyo (material) bilan, qachon foydalanishni eslatib turishlari kerak bo'ladi. Grafik (material)larning turlari va ulardan foydalanish texnikasi xaqida keyingi bo'limlarda suhbatlashamiz.

## **8. Xonani jihozlash va grafikada ishlatiladigan ashyo (material) va ish qurollari**

Har qanday mashhulot o'tadigan xonalar, o'ziga yarasha sharoit talab qiladi. Jumladan tasviriy san'at bilan shug'ullandigan xona ichida sharoit quyidagicha bo'lishi kerak: xonalari

yorug' iloji boricha derazalari katta bo'lishi. Auditoriyalar kattaligini belgilashda, chizayotgan xar bir o'quvchi soniga ikki kvadrat metrdan to'g'ri kelishi kerak.

Sun'iy elektrlampalar xona shipidan yoritilishi va naturaga tikka tushmasligi lozim. Naturani kerakli nuqtadan yoritishda sun'iy yoritgich, ya'ni safitdan foydalanamiz. Safit ishlatishga qulay ya'ni u ko'tarilib tushilishi, o'ng va chap ga oson burilishiga e'tibor qaratishimiz lozim. O'zgarmas doimiy yorug'lik tushirilgach, derazani parda bilan yopib qo'ysa ham bo'ladi.

Naturadan ishlashda xoxish istakka qarab, o'tirib ham turib ishlash mumkin.

O'tirib ishlash uchun kichik molbertdan foydalanganimiz ma'qul. Unga qo'yib ishlaydigan planshetimiz xajmi 45sm-60sm bo'lgani ma'qul, planshet faner yoki orgalitdan yasaladi. Kerakli xajmni o'lchab kesib olganimizdan so'ng, xuddi shu xajmda reyka-ramka kesib olinib faner yoki orgalitni chekka qismlariga qoqiladi. Tayyor bo'lgan planshetga, qog'oz burchaklari 90e da qilib to'g'ri kesib olinadi.

Qog'ozlarni xam, ishlatiladigan materiallar turiga qarab tanlanadi. Grafrit qalam uchun maxkam-pishiq qog'oz o'chirganda chidamli bo'lgani yaxshi, pero tush uchun o'rtacha yumshoqlikda, biroz silliqroq: retush, sangina sous, ko'mir kabi yumshoq materiallar uchun, biroz satxi dag'alroq g'adir-budur ko'rinishdagi qog'oz ishlatiladi.


Tasvirlash vositalari, grafik materiallar xaqida keyinroq batafsil gapirib o'tiladi. Vatman qog'oz na faqat qalamda, balki cho'tkada ham ishlashga qulay. Savdo-sotiqda ishlatiladigan mahsulot o'rab beriladigan (past sifatli) qog'oz xamda devorga yopishtiriladigan (oboy) qog'ozni orqa tomoni qoplama va ko'mirda qisqa muddatli chizgilar, qoramalar uchun juda mos va qulaydir.

Uzoq muddatga mo'ljallangan chizgilar uchun qog'oz, planshetga quyidagicha tortiladi. Qog'oz chetlari 1,5-2 sm qilib to'g'ri burchakli qilib bukiladi, ich tarafidan xo'llash chog'ida bukilgan qismiga suv tekkizilmaydi. Qog'oz yaxshilab nam tortgach planshetga bosib tekislanadi va qayrilgan qismiga PVA kley yoki knopka yordamida mahkamlanadi. Qog'oz tortish chog'ida yuzani qog'oz markazidan planshet chet qismlari



tomon yoʻnaltirib boriladi. Quritishda isitgich asboblari xamda tikka quyoshdan foydalanmagan maqul. Oʻzi asta-sekin qurigani yaxshi. Mana ishlash uchun barcha sharoit yaratildi.

**Grafika** — bu tasviriy sanʼatining bir turi boʻlib, uning asosini chizmatasvir (qalamtasvir) tashkil etadi, chunki “grafika” grekchadan “grafo” yaʼni yozaman, chizaman kabi maʼnoni anglatadi. Inglizlarning hisoblashicha grafika sanʼati bu “oq-qora sanʼatidir”. Chizmatasvir na faqat sanʼat turlarining asosi, balki nosanʼatda xam oʻrni katta. Hozir esa xatto kompyuterlarda ham chizadilar, chizganda xam juda chaqqon, tez va bexato.



Quyidagi savollarga javob topishga xarakat qilamiz.

- Chizmatasvir nima?
- Grafikada foydalaniladigan (materiallar) tasvirlashda ishlatiladigan vositalar turlari qanday?

1. Chizgi.

2. Chizmoq.

3. Chizmatasvir, - gap nima xaqida ketayotgani hammaga maʼlum. “Grafika” desak, shu xaxoti — bu nima ekan? — deb soʻraydilar.

Rangtasvirchi va grafikni ijodda bir-birlaridan ajratib boʻlmaydi. Rangtasvirchi kartinani yozadilar, grafiklar esa chizadilar, chizgan ishlari ularning asari hisoblanadi. Grafik quruq

qattiq materiallardan foydalanib o'z asarini ifodalaydi. Rang-tasvirchini cho'tkasi bo'yoq talab qiladi, qalam bu misoli bir cho'tka, ichiga asta-sekin tugaydigan qattiq bo'yoq (grifel) to'ldirilgan. Rangli qalamlarni ham imkoniyatlari grafikani ifodalashda ahamiyati katta. Siyoxga to'ldirilgan "Gel" ruchkalari flomasterlar ham, o'ziga yarasha betakror plastika yaratadi, xuddi rangli gravyuradek effektga ega. Oddiy grifel qalam turli xil kattalikda bo'ladi, gox qattiq, ingichka go'yo mixdek, goxida yumshoq, keng go'yo bo'rdek. Bo'r bilan ham chizadilar. U qog'oz yuzida baxmal kabi yumshoq chiziq qoldiradi. Bo'r, tasvirni yengil nozik qilib ko'rsatadi.

"Sangina" bo'yalgan mellar orasida ajralib turadigan "qizil bo'r" jigar rang tusligi ham bo'ladi. Gohida to'q qizg'ish rangligi xuddi qaynoq qon kabi tusda. Frantsuz rassomlari shuning uchun ham "sangina"ni be'jiz "qonli" "qizil -qonli" deb atashmagan.

O'shandan beri besh yuz yilcha o'tdi "sangina", nomi shunchalik hayotimizga chuqur o'rtnashib qoldi, uni ashyo sifatida ko'pchilik sevib qoldi, u injiq emas, rangin, sodda, shu sababli u butun evropa bo'ylab tarqaldi. Ilgari qizil bo'rni tabiatdan olishar edi, hozir esa fabrikada tayyorlaydilar. Uni shtrix usulida ishlatish ham mumkin, agar juda qattiq bosmay yengil tusda ishlatilsa, rezinkada o'chirish mumkin.

"Sous" - sanginaga o'xshash bo'rsifat material bo'lib, qora, jigarrang, och ko'kimtir, qoramtir xillari bo'lib suvda eritib ishlatiladi. Oldindan idishga ivitib qo'yilgan "sousni" xuddi "suv bo'yoq" singari qog'oz yuziga cho'tka bilan yoyib chiqiladi. Qog'ozga qalamda chizish uchun xira tus berishda ham foydalanadilar. Sousda ishlash jarayonini to'liq o'rganadigan bo'lsak, buning uchun, planshetda boshlangan chizmatasvirning yuza qismini (gubka) sintetik yostiqla bilan yog'sizlantirib olamiz. Idishga ivitib qo'yilgan sous suyuqligini (ochroq qilib tayyorlanadi) fleys-cho'tka bilan chapdan-o'ngga, tekis dog'siz qilib yopib chiqiladi. Planshet xolati 30% qiyalikda bo'lishi kerak. Planshetni obdon quritib olganimizdan so'ng idishda oldingisidan biroz to'qroq tusda qilib suyuqlik tayyorlaymiz. Yarim tusni qoldirib, to'qroq qismlarni yopib chiqamiz. Ishni katta qismlarni yopish bilan davom ettiramiz. Tonal



mutanosiblikni saqlagan holda kichik detallarni turli xajmdagi choʻtkalar bilan shaklga ishlov beramiz.

Yorugʻ qismlarini oʻchirgʻich bilan bir oz yengillashtirib olamiz, tonal mutanosibli, formani qurilishida choʻtka va retush qalam yordamida amalga oshiramiz. Eng muximi chizmaning umumiy xolatini saqlashda yorugʻ qismlarini, oq dogʻi (blik) refleksning suratini yaxlitligiga boʻysundirishdir. Qogʻoz tarshon va vatmandan iborat boʻlsa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Sangina koʻmirda ishlash uchun esa qogʻozni achchiq choy, tamaki aralashmasi, kofe bilan qogʻozni ham tuslab olsa boʻladi.

Grafik rassomlar koʻmir bilan ham ishlaydilar, uni yogʻochni kuydirib tayyorlaydilar. “Koʻmir qalam” qogʻoz yuzida xarakterlanganda shitirlab, quyuq qora baxmal sifat noyob goʻzal iz qoldiradi. Koʻmir qalamchasi, patel, sangina oʻzining tashqi koʻrinishi qalamdan sezilarli darajadi farq qiladi. Ularni yogʻoch orasiga joylab boʻlmaydi. Ishlayotgan paytda qoʻlni iflos qilmasligi uchun ularni zar qogʻozga oʻrab qoʻyadilar. Koʻmirni barmoq yoki latta boʻlagi bilan ishqalab ochartirish oson. Eng muxim kamchiligi, uni qogʻoz bilan jiplashib qogʻozga singib ketmasligi. Shuning uchun koʻmirni gʻadir-budir qattiq va pishiq qogʻoz yuzasiga ishlagan maqul.

Ish tugatilgach, surat yuzini ximoyalash maqsadida qotiriladi. Ushbu jarayon quyidagicha olib boriladi: konifolning spirt bilan aralashmasi yoki yogʻsizlangan sut purkagich (pulovizator) bilan bir necha marta sepiladi. Hozirda esa suratlarni himoyalovchi vositalar sanoatda koʻplab ishlab chiqarilmoqda. “Fiksaj” xatto “soch lakini” ham sepsa yaxshi natija beradi.

Suratdan 40sm oraliqda sepiladi. Uzoq muddatga saqlash uchun moʻljallangan suratlar maxsus papkalarda saqlanadi, surat yuziga kalka yoki yupqa qogʻoz yopiladi.

“**Bistr**” – suyuq boʻyoq yogʻoch kuyindisini suvda eriydigan oʻsimlik elimiga aralastirilgani, uni pero va kist vositasida ishlatilgan (xuddi hozirgi tushni eslatadi). XV asrdan boʻyoq uch yuz yil davomida juda koʻp buyuk rassomlar tomonidan goʻzal rasmlar ishlangan.



“**Tush**” — turlicha usulda ishlatiladi. Chiziqli chizmada, undan pero yoki qamish choʻpdan foydalanib ishlanadi. Qisqa muddatli chizgilar (nabroska)lar uchun qattiq va yumshoq choʻtkadan foydalaniladi. Goxida tushga suv qoʻshmasdan yarim quruq (shetina) qil choʻtkadan foydalaniladi. Tushni xuddi suv boʻyoq (akvarel) singari yumshoq yirikroq qil choʻtka vositasida satx yuziga tekis yopishda (otmivka) qoʻllaniladi. Tush bunda chinni forfor politrada suv bilan aralashtiriladi. Tushdan asosan peroda ishlanadi. Undan Gʻarb va Sharqning buyuk ustalari foydalanishgan.

“**Pero**” — “tigʻ qalam” juda xilma-xil chiziqlarga oʻta boydir. Chiziqlar plastikasida ingichkadan yoʻgʻonlashib oʻzgarib borishida, goʻyo chiziqlar musiqasi yangrayotgandek. U uzun boʻlishi yoki uzilib boʻlinib koʻrinishda, shiddat bilan bosib yoki yengil, egiluvchan xatto nuqtasimon yoʻsinda ifodalanishi mumkiniki chizmasvir usullarini boyitib boradi.

Chizmasvirida eng koʻp ishlatiladigan, eng ommalashgan ish quroli bu “grafit” qora qalamdir.

Qalam juda uzoq oʻtmishdan, turli koʻrinishga ega boʻlgan holda bizgacha etib kelgan. Uning tarixi Angliyaga borib taqaladi, inglizcha nomlanishi “pencil” lotinchada “pencilis” “kichik dum” maʼnosini bildiradi. Oldingi qalam turi “plyumbum” qoʻrgʻoshindan tayyorlangan boʻlib ustiga yogʻoch sterjen bilan qoplangan, lekin u yaxshi chizmagani tufayli yoʻqolib ketgan.

Hozirgi zamon qalamining yaratilishi Angliyada roʻy bergan boʻron bilan chambarchas bogʻliq. 1564 yilda Borroudeya yaqinida boʻron tufayli ildizi bilan agʻanab tushgan daraxt sababli “sof grafit”ni yoki “qora uglerod”ni qattiq xolatdagi yigʻindisi paydo boʻladi. Boshqa paydo boʻlish joyi Bavariyada u uncha toza emas edi.

Tayyorlash usuli grafit kukuni loy bilan aralashtiriladi. Tayyor boʻlgan pastani 60 tonna yuk kvadrat dyumga bosim bilan mayda teshikchalardan siqib chiqariladi. Teshikchalar kattaligi grafit qalam hajmida boʻladi. Soʻng uni oqarguncha issiqda toblaydilar. Tayyor boʻlgan grafit yogʻoch qolipchalarga joylanadi.

Ana shunday uzoq mashaqqatli jarayon tufayli, qalamga xurmat va faxr bilan qaraydilar. Qalamni qattiq va yumshoq turi boʻladi. (T) N — qattiq, (M) V — yumshoq. “Italyan qalami”da

yuz yillardan beri ishlab kelishmoqda. Tashqi ko‘rinishidan oddiy qalamlardan qolishmasada, biroq tarkibi boshqacha kuydirilgan suyak o‘simlik elimi bilan qotirilgan bo‘lib, ishlatganda o‘zidan rangdor chiziqlar iz qoldiradi. O‘sha paytda Italiyada kashf etilgan qalamlar albatta hozir yo‘q, bizgacha bir nechtasi etib kelgan. Ammo uni tayyorlash usuli saqlanib qolgan. Davr o‘tishi bilan u ham o‘zgarilgan bo‘lishi extimoldan xoli emas.

Ammo ushbu qalamda ishlangan suratlar juda ko‘p saqlanib qolgan. Ayniqsa Ovropaning buyuk rassomlari, ushbu qalamda noyob grafik suratlarni kelajak avlod uchun qoldirib ketganlar.

**“O‘chirg‘ich”** – foydali narsa, qachonki undan bilib foydalanilsa, agarda haddan ziyod ko‘p o‘chirilsa, qog‘oz shunday xolatga kelib qoladiki, xatto chizmani davom ettirishga ham imkon qolmaydi. Ayniqsa o‘chirg‘ichni ish boshlash jarayonida va haddan ziyod bosib o‘chirishdan o‘zini tiygan ma‘qul.

Agar chizmatasvirni nozik chiziqlar bilan qalamni qog‘oz yuzasiga yengil tekkizgan xolda ishlansa o‘chirg‘ichga ham xojat qolmaydi. Chizmani qurishda va aniqlik kiritishda, aniq topilgan chiziqlarni kuchaytirilsa kerakmas noaniq chiziqlar o‘z-o‘zidan bilinmay, ko‘rinmay ketadi.

Agarda, ba‘zi keraksiz chiziqlar baribir xalaqit qilgan taqirda, ularni ish tugash oldidan olib tashlash mumkin. Umuman, o‘chirg‘ichga kamroq murojaat qilishga o‘rganishimiz kerak, agar juda ham extiyoj sezilsa, ish tugash oldidan, yorug‘ qismlarni aniqlashtirish, (blik) oq dog‘ni, refleksni kuchaytirish uchun foydalanganimiz ma‘quldir.

Tasvirni qurish jarayonida, yo‘g‘on chiziqlar bilan qalamni xaddan ziyod bosib ishlanganda, o‘chirishga to‘g‘ri kelib qolsa yana qayta tasvir chiziladi va yana o‘chiriladi, shunda qog‘oz yuzasi (fakturasi) buzilib, titilgan yoqimsiz xolatga kelib qoladi va qalam, qog‘oz yuziga yaxshi yotmaydi, chizmasurat ezg‘ilangan holatga kelib qoladi, bu albatta noxush xolat.

Har bir materialni maqsadga muvofiq tarzda to‘g‘ri foydalanish kerak, bu esa albatta tajriba orqasidan keladi. Boshlovchi rassomlar qalamni misoli avtoruchkadek foydalanganidek ushlaydilar, xuddi xat yozayotgandek. Bu noqulay: qo‘l ushbu xolatda o‘ng va chap tarafga yengil xarakatlana olmaydi. Chiziqlar bir xil qalinlikda bo‘lib ko‘rinadi. Qalamni ochilgan qismidan yuqo-



riroqdan, kaftga yotqizilgan xolda (suratdagidek) qilib ushlab, rasm chizish jarayonida, qo‘lning erkin xarakat qilishiga yordam beradi.

## 9. Grafika va tomoshabin

Grafik asarlar dunyoni ko‘pgina muzeylarida o‘ziga yarasha jon saqlab, panoh topib, alohida qo‘lyozmalar bilan birga muzey maxsus xonalarida saqlanib yashab kelmoqdalar.

Panoh topib deganda biz, grafik asarlarga ayniqsa chizma suratlariga alohida qarab, ularning uzoq yashashlarida nixoyatda sharoit yetarli bo‘lishi va qulay muhitni ahamiyati kattaligini nazarda tutgan edik.

Qadimdan bor bo‘lib kelayotgan devoriy jovonlar katta stollar, ularning ustiga chizma suratlar papkalari yoyib qo‘yilgan. Papkalarni ochar ekanmiz har bir suratni yuziga alohida yupqa qog‘oz yopib qo‘yilgan, bu esa suratlarni satxi surkalmaligi va shikastlanmasligi uchun xizmat qiladi. (ba‘zi surat yuziga (fiksaj) tasvir yuzini ximoyalovchi suyuqlik sepiladi).

Muzeylar ko‘rgazma zallarining fondlarida qanchadan-qancha san‘at durdonalari saqlanadi, ularni oylab kuzatsang barchasini ko‘rib ulgura olmasan. Chiroqlarni qulay tarzda asarlarni mayin yoritishi, tinch-sokin muhit, grafik asarlarini shedevidan lazzatlanishga o‘z xissasini qo‘shmay qolmaydi. Ularning asosiy tomoshabini turli insonlar ishlarni saqlovchi mutaxassislar, hamisha kelib turadigan ishqibozlar; olimlar, rassomlar, talabalar, shunchaki grafikani sevuvchilar va o‘quvchilardir. Biz talaba o‘quvchilarni ana shunday muzey va suratlar saqlanadigan maskanlar ularning ikkinchi uyi bo‘lishini ta‘minlashimiz va sharoit yaratib berishimiz lozim.

Bunday muhitning paydo bo‘lishi (atmosfera) inson madaniyatini rivojlanishiga, uning ichki dunyosini tarbiyalanishiga olib borishga xech qanday shubxa yo‘q. Bu kabi dargoxlar ko‘rgazmadan ko‘ra, kutubxonani eslatadi. Grafik asarlarga tasviriy san‘at ko‘rgazmalarida, asosan ataylab ajratilgan vitrina va stendlar beriladi. Ana o‘shanda grafika xona sukunatini tark etib, “ko‘rgazma libosini” kiyadi. Boshqa so‘z bilan aytganda chizma suratga oyna, ramka, oyna ichidagi qog‘ozli ramka (pas-



porta) kiygiziladi, qattiq qog'oz yoki qalam karton (oq) bo'lishi ham mumkin. Pasportda oddiy kichik suratni katta jiddiy asarga aylantirib yuborish mumkin, bunda suratga mos va xos rangda va ko'rinishga ega bo'lgan qog'oz tanlashga e'tibor berilsa bo'lgani.

Ko'pchilik ko'rgazmalarda grafik asarlar o'zining oq-qora ko'rinishi bilan rangtasvirning yorqin polotnolari oldida ancha ojizligi sezilib qoladi. Shuning uchun chizmatasvirga unchalik e'tibor berilmaydi. Ko'rgazmadan charchagan tomashabin, ko'pincha grafik asarlarga e'tibor bermay, yana alohida kelarman deb, - o'tib ketadi, afsus u boshqa qaytib kelmaydi. Bunga balki, vaqt kamligi sababdir. Va kamdan kam tomashabin ko'rgazmaga ikki bor keladi. Xulosa shuki, "qora -oq san'ati" hamisha sabr-chidam bilan o'zining muxlisini kutadi. Albatta uning muxlisi keladi (grafika ishqibozlari va bilag'onlari kam emas!) Ishqiboz xotirjam, shoshmas, bilag'on, talabchan, san'atni sevuvchi — bu tomashabin juda ajoyibdur! Ana o'shalargagina grafika san'ati o'z borligini nomoyon qiladi, o'zini ko'z-ko'z qiladi. Boshqacha qilib aytganda, chiziqlar tonal dog'larning aniq go'zalligi chuqur ma'noning ochib berishiga xizmat qiladi.

## Mundarija

Kirish.....	3
Dars berishda ko'rgazmali usulning roli.....	4
1 – BOSQICH I SEMESTR	
1. Oddiy va sodda shakldagi ikki yoki uchta geometrik jismlarning chiziqlar bilan bo'shliqda ko'rsatilgan chizmasi.....	8
2. Ikki yoki uch geometrik jismlarning gorizontaal chizig'idan Past ko'rinishda qo'yilgan natyurmort.....	11
3. Gipsdan yasalgan vazaning chizma tasviri.....	15
I – BOSQICH II SEMESTR	
1. Odam yuzidagi elementlarning gipsdan yasalgan bo'laklari, lab tasviri.....	18
2. Gipsdan yasalgan bo'laklar: ko'z tasviri.....	19
3. Gipsdan yasalgan bo'laklar: Burun tasviri.....	21
4. Gipsdan yasalgan bo'laklar: quloq tasviri.....	22
2 – BOSQICH III SEMESTR	
1. Antik dunyo haykallaridan erkak kishi byustining chizmatasviri.....	24
2. Odam bosh tuzilishining kesma gipsdan yasalgan qiyofasi: "Bolvanka"ning chizmatasviri.....	27
3. Odam bosh suyagining chizmatasviri.....	29
4. Gudonning gipsli anatomik boshi chizmatasviri.....	30
2 – BOSQICH IV SEMESTR	
1. Odam boshidan qisqa muddatli chizgilar.....	33
2. Odam boshining murakkab burilishi xolati chizma tasviri.....	34
3. Odam boshi, yelkasi, qo'li bilan chizmatasviri.....	37
3 – BOSQICH V SEMESTR	
1. Odam skleti (suyaklari) chizmatasviri.....	40
2. Odam gavdasining gipsdan yasalgan anatomik qismlari: qo'l, oyoq tasviri.....	43
3. Gudonning gipsdan yasalgan anatomik yarim gavdasi chizmatasviri.....	45
4. Odam qomatining chizmatasviri.....	48
3 – BOSQICH VI SEMESTR	
1. Odam qomatining chizmatasviri.....	55
2. Tez chizgilarni (Qoralamalarni) tasvirlash imkoniyatlari va xususiyatlari.....	58
3. Tez chizgilarda foydalanadigan tasvirlash usullari.....	60
4. Tez chiziladigan mashqlar.....	62
5. Hayvonlar va qushlarni tez chizgilari.....	65
6. Inson boshini tez chizgisi.....	65
7. Inson qomatini tasvirlash.....	67
8. Xonani jihozlash va grafikada ishlatiladigan ashyo (material) va ish qurollari.....	70
9. Grafika va tomashabin.....	77

N.X. ABDULLAYEV

CHIZMATASVIR

Muharrir *I.Xatilov*  
Texnik muharrir *M.Alimov*  
Badiiy muharrir *M.Odilov*  
Kompyuterda sahifalovchi *A.Ro'ziyev*

Bosishga ruxsat etildi 11.10.2010. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/16.  
Hisob-nashr tabog'i 5,0. Adadi 33.  
Buyurtma №88

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasida  
rizografiya usulida chop etildi.  
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.



ISBN 978-0943-13-280-1



9 789943 132801